

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

JUMABAEVA SOHIBA MAQSUDOVNA

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA FRAZELOGIZMLAR

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
Dots. A.Rafiev

Toshkent-2014

So‘z boshi

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizdan buyon tilshunoslik sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tildagi barcha birliklar xalqimizning til boyligi, javohirlari hisoblanadi. Hozirgi kun talablari bilan hayotimiz mezoniga e’tibor beradigan bo‘lsak, xalq tili o‘zining ko‘zga ko‘rinmas kuchga egaligini namoyon qilmoqda. Yurtboshimiz bir nutqida: - “Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki, u ma’naviyat belgisi sifatida kishilarni yaqin qilib jipslashtiradi”¹, deya ta’kidlaydilar. Tilga bo‘lgan bu kabi e’tiroflar sabab ham tilshunoslikning barcha sohalari bo‘yicha yangi tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Jumladan, frazeologizmlar va ularning nutqiy kontekstda tutgan o‘rni keng tadqiq etilmoqda. U o‘z tekshirish ob’ektiga, tadqiq etish yo‘li va usullariga ega bo‘lgan fan tarmoqlari sifatida shakllanib bormoqda.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyati, grammatik tuslanishi va turlanishi o‘rganilgan bir paytda, frazeologizmlarning badiiy matnda qo‘llanilishi bilan bog‘liq ba’zi masalalar o‘z echimini kutmoqda. Birinchi navbatda, frazeologizmlarning asosiy vazifasi shundan iboratki, u badiiy asarning tiliga hamda so‘zlashuv nutqiga jilo beradi, uni sayqallashtiruvchi ifodaviy tasvir vositalarining badiiy asarlar tilida namoyon etadi. Badiiy asar tilidagi individual – muallif frazeologizmlarini o‘rganish, ularning ma’no qirralarini aniqlash, ularni frazeologik lug‘atlarga kiritish kabi masalalar tilshunoslar e’tiborida bo‘lmog‘i zarur. Badiiy asarlar tilining o‘zi murakkab jarayon bo‘lganligi uchun, badiiy asarlarda yozuvchining individual yondashuvi mavjudligi sabab turli mualliflarga oid badiiy asarlarni emas, asarlarida hayotiylik nafasi ufurib turuvchi qalami o‘tkir yozuvchi O‘tkir Hoshimovning badiiy asarlarida keltirilgan frazeologizmlarni tadqiq va tahlil etishni rejalashtirdik. Chunki o‘zbek adabiy tili va badiiy asar tili frazeologizmlarini so‘z san’atkorlari tili va uslubi doirasida o‘rganish salmoqli natijalarga olib keladi. Yangi nazariy fikrlarni hosil qilish va yangicha uslubdagi frazeologizmlarni yig‘ishga erishish tufayli ham ish o‘z dolzarbligini kasb etadi.

¹ Каримов И. Ёшларимиз – халқимизнинг ишончи ва таянчи. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 54.

Ishning maqsad va vazifalari. Badiiy matnlarda mavjud frazeologizmlarning qo'llanishiga doir maxsus tadqiqot yaratish o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyatga egadir. O'.Hoshimov asarlarida frazeologizmlarning qo'llanilishini o'rganish, tasniflash, semantik va tuzilishiga oid ko'rinishlarini aniqlash, ahamiyatini belgilash tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- badiiy matnda frazeologizmlarning o'rganilish darajasini aniqlash;
- badiiy asarlarda mazkur birlikning turlarini tahlil etish;
- O'.Hoshimov asarlarida qo'llanilgan frazeologizmlarni to'plab, ularning leksik – semantik xususiyatini o'rganish;
- yozuvchining badiiy asarlarida mavjud frazeologizmlarning tuzilishiga ko'ra tasniflash;
- tadqiqotga tortilgan asarlarda o'zgarishga uchramagan va o'zgargan frazeologizmlarni ko'rsatish, hamda tuzilishiga ko'ra birikmaga teng va gapga teng frazeologizmlarni tadqiq etish kabilar o'z oldimizga belgilab qo'yilgan asosiy vazifalar hisoblanadi.

Ilmiy ish metodlari. Ishda tavsiflash, qiyoslash, statistik, lisoniy tajriba metodlaridan, shuningdek, kontekstual va komponent tahlil metodlari asosida tadqiq etishga qaratildi. Bundan tashqari frazeologizmlarga oid shu kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda mavjud metodlarga ham tayanildi.

Ishning obyekti va predmeti. Tadqiqotimizda obyekt sifatida O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Nur borki, soya bor", "Dunyoning ishlari", "Bahor qaytmaydi", "Ikki karra ikki – besh" kabi va boshqa bir qancha asarlari olindi va mazkur badiiy asarlardan muhim misollar yig'ildi. O'zbek tilida mavjud frazeologizmlar va yozuvchi tomonidan yaratilgan individual xarakterga ega yangi frazeologizmlar tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur malakaviy tadqiqot ishining 1-bobida o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilishiga doir ilmiy – nazariy ma'lumotlar bilan tanishib, badiiy asarlarda mazkur masalaning tadqiqiga

oid fikrlarni jamlashga, badiiy matnda tutgan o'rnini belgilashga va asosiy xususiyatlarini ko'rsatishga e'tibor qaratdik. 2-bobda O'.Hoshimov qalamiga mansub asarlarda qo'llanilgan frazeologizmlarning semantik xususiyati borasida mufassal to'xtalishga harakat qilamiz. Ishning 3-bobida yozuvchi asarlaridan yig'ilgan misollarda birikmaga hamda gapga teng frazeologizmlar tahliliga to'xtalamiz. 2-3-boblar yuzasidan ishni yoritishda O'.Hoshimovning yuqorida eslatib o'tilgan asarlaridanga yaqin frazeologizmlarni to'plashga va tahlil etishga muvaffaq bo'ldik.

Ilmiy ishning tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi so'z boshi, 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi ...betdan iborat.

BADIIY MATNDA FRAZEOLOGIZMLAR

1.1. O‘zbek tilshunosligida masalaning o‘rganilganlik darajasi

Frazeologiya til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma’noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi va h². Ma’lumki, frazeologizm deganda, ko‘chma ma’no anglatadigan, ibora yoki turg‘un so‘z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so‘z komponentlariga xos leksik ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma’nosi umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi³. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli asos soldi. Frazeologizmlarning grammatik, semantik, funksional – uslubiy jihatlarini rus tilshunolarining tadqiqotlarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, V.Vinogradov iboralarni leksik qatlam sifatida ma’no guruhlariga ko‘ra tasniflaydi. V.Jukov esa frazeologizmlarning kategorial ma’nolarini aniqlagan. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar Sh.Rahmatullaev, M.Sodiqova, I.Qo‘chqortoev, A.Rafiev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, Q.Hakimov, K.Bozorboyev kabi olimlar ishlarida keng o‘rganilgan⁴. Mazkur ishlarda frazeologizm masalalari etarlicha tahlil qilinib, so‘zlashuv nutqida faol foydalaniladigan hamda turli badiiy matnlarda qo‘llanilgan frazeologik birliklarga doir misollar orqali o‘rganilganligi diqqatga sazovor.

² Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 129.

³ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 3.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (Фразеологик полисемия, синонимия, антонимия ва омонимлик): Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1966. – 326 б.; Содикова М. Қисқача ўзбекча – русча фразеологик луғат. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1989. – 336 б.; Қўчқортоев И. Бадий сўз устаси (А.Қаҳҳор ҳақида). – Тошкент, 1967. – 32 б.; Рафиев А. Иборалар нутқимиз кўрки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 22 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – 330б.; Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қоплипи фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанлиги: Филол.ф.номз...дисс. – Тошкент, 1993.; Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001.

Ammo shu bilan birga badiiy matnlarda yozuvchi uslubiga oid frazeologik birliklarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar juda kamchilikni tashkil etadi.

Frazeologiya lisoniy kategoriya sifatida keyingi yillarda keng miqyosda o'rganilmoqda. Bu esa frazeologiyaning tilshunoslikning muhim sohasi sifatida shakllanishiga imkon tug'dirdi va uning o'rganish ko'lamini kengaytirdi. Frazeologizmlarning grammatik, sintaktik, stilistik xususiyatlarini har tomonlama chuqur ilmiy tahlil etish har vaqt tilshunoslar diqqatidir. Frazeologizmlar struktural, semantik, funksional – uslubiy jihatlari bilan murakkab hodisa bo'lganligi uchun u o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega⁵. Frazeologizmlar narsa – hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli – ekspressiv ifodalash ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi muayyan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy muhit, o'zbek turmushidagi hayotiy voqelik va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador bo'ladi⁶. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi har bir tilning o'z ichki qonuniyatlariga, fonetik, leksik grammatik talablariga bo'ysundiriladi. Ular deyarli ko'chma ma'noda qo'llanib, badiiy tasvir vositasida emotsionallik, ekspressivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli frazeologizmlar insonlarning faqat ongiga emas, balki, his – tuyg'ulariga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida qo'llaniladi⁷.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnlarda frazeologizmlarning qo'llanilishiga doir mukammal ilmiy – nazariy tadqiqot ishi bo'lmasa-da, ammo keyingi yillarda amalga oshirilgan bir qancha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida bu masalaga jiddiy to'xtalangan. Ana shunday tadqiqotlardan biri B.Yo'ldoshevning “Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy

⁵ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 32.

⁶ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 49.

⁷ Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент, 2010. – Б. 88.

xususiyatlari” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasidir. Mazkur ishda badiiy matnlarda keltirilgan turli frazeologizmlarning funksional – uslubiy jihatlariga asosiy e’tiborini qaratadi. Frazeologizmlarning ma’nosida ikkita qism mavjud: 1) ekspressiv baho bo’yog’i; 2) funksional – uslubiy bo’yoq. Frazeologizmlarning ekspressiv baho bo’yog’ida ma’no nozikliklari yuklanishini alohida ta’kidlaydi. Bu xususiyat tarkibida emotsionallik va ekspressivlik asosiy omil ekanligini, emotsionallik frazeologizmlarning turli xil his – tuyg’ularini, shaxs va predmetlarga nisbatan sub’ektiv munosabatlarni ifodalasa, ekspressivlik nutqning ta’sirchanlik xususiyati hisoblanishini izohlab o’tgan. Bundan tashqari olim o’z ishida badiiy matnlarda frazeologizmlardan uslubiy maqsadda ijodiy foydalanish usullari to’g’risida ham to’xtalgan. Bunda individual – muallif o’z usullari bo’yicha frazeologizmlardan foydalanganda, bu birliklarning o’zgarishiga sabab bo’lishini ham tahlil etadi⁸.

Frazeologizmlarni keng miqyosda tadqiq etgan olimlardan biri A.Mamatovdir. Olimning “O’zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga egadir. Bu ishda frazeologizmlarning shakllanish tamoyili xususida gap ketadi. Frazeologizmlarning semantik shakllanishida konnotativ ma’no va nominativ vazifa holatiga asosiy e’tiborini qaratadi. Olimning ta’kidicha, mavjud barcha frazeologizmlar konnotativ ma’noga ega bo’lmaydi. Masalan: quloch yoymoq, ma’qul topmoq, umid qilmoq, qo’l qo’ymoq kabilar faqat lug’aviy ma’noga ega bo’lib, nominativ vazifa bajaradi. Ammo aksariyat frazeologizmlar konnotativ ma’no komponentiga ega⁹.

O’zbek tili frazeologik birliklariga bag’ishlangan yana bir tadqiqot K.Bozorboevning “O’zbek so’zlashuv nutqi frazeologizmlari” mavzusidagi nomzodlik ishidir. Olim frazeologizmlarning o’zgarishga uchrashi va yangilarining vujudga kelishida mumtoz va hozirgi badiiy adabiyotning ham beqiyos roli

⁸ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1993. – 18.

⁹ Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари: Филол.ф.доктр...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 29.

mavjudligini ta'kidlaydi¹⁰. Biz ham tadqiqot ishimizning mazmun – mohiyatini yoritib berishda, yuqoridagi tadqiqotlarga tayandik.

Hozirgacha tilshunosligimizda tadqiq etilgan ilmiy – nazariy, amaliy ishlarga ko'z yugurtirsak, bunda frazeologizmlar go'yo chek-chegasiz katta bir maydonni eslatadi. O'zbek tilshunosligida yuqorida sanab o'tgan ilmiy izlanishlarning asosi sifatida Sh.Rahmatullaevning ilmiy izlanishlari, muhim nazariy qarashlarini, albatta, ta'kidlab o'tishimiz kerak. Olim turli manbalarda frazeologiya termini o'rnida frazema terminini ham qo'llash mumkinligini yozadi. Frazema til qurilishining lug'at bosqichiga mansub ikkinchi lisoniy birlik bo'lib, bittadan ortiq leksemaning o'zaro semantik – sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo'ladi. Frazelogizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, ya'ni atash semalari bir xil bo'lsa-da, ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi. Frazelogizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi¹¹. Aynan shu xususiyati bilan badiiy matnlarda muhim o'rin tutadi.

Til birligi hisoblangan frazeologizmlarning badiiy matnlarda tadqiq va tahlil etilishi muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu o'rinda M.Yo'ldoshev tomonidan e'lon qilingan "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari" o'quv qo'llanmasi va "Badiiy matnning lisoniy tahlili" nomli metodik qo'llanmalari ham diqqatga sazovordir. Mazkur asarlarda ham frazeologizmlarning qo'llanilishi masalasiga nazar tashlangan. Ayniqsa bunda badiiy asarlarda faol qo'llanishda bo'ladigan frazeologik ma'nodoshlik masalasi yoritib berilgan. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarining ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermoq, ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror-bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi.

¹⁰ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 7.

¹¹ Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: Университет, 2006.

Masalan: U enggan, yutgan, *oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldirgan* kundosh emasmi?

Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimik munosabatda bo'la oladi.¹² Masalan: Xursand – og'zi qulog'ida, g'azablanmoq – jahli chiqmoq, beg'am – dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi kabilar leksik-frazeologik ma'nodoshlik hisoblanadi. Badiiy matnda ma'nodoshlikning bunday turidan holatni bo'rttirib, atroflicha tasvirlashda foydalaniladi.

O'zbek frazeologizmlarining funksional – uslubiy xususiyatlari, iboralarning uslubiy qo'llanishi haqida B.Yo'ldoshev frazeologiya sohasiga salmoqli hissa qo'shdi. Olim frazeologizmlarning funksional – uslubiy xususiyatlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasida mazkur til birliklarining, nafaqat, og'zaki nutqda, balki badiiy tili asar tilida qo'llanilishi yuzasidan o'ziga xos fikrlarni bildirgan.

Tilshunos I.Qo'chqortoev yozuvchi, so'z ustasi A.Qahhorning frazeologizmlardan foydalanish mahoratini o'rganib, "Abdulla Qahhorning frazeologik novatorligi" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada yozuvchining frazeologizm yaratish mahoratini hamda ma'no qirralarini ilmiy asoslab bergan.

S.Mirzoqulov o'zbek tiliga qardosh tildan tarjima qilingan qirg'iz yozuvchisi T.Qosimbekovning "Singan qilich" romani tarjimasini leksik – semantik nuqtayi nazardan tekshirib, ikki tildagi leksema, frazemalar orasidagi umumiy va xususiy tomonlarini ochish bilan birga, tarjimonning mahoratini ham baholagan.

O'zbek tili frazeologizmlarini so'z san'atkorlari tili va uslubi doirasida o'rganish salmoqli natijalarga olib keldi. Bu narsa mumtoz adabiyot, hozirgi adabiyot, gazeta tili va folklor asarlari matnlari asosida amalga oshirilmoqda. Frazeologizmlar haqidagi ishlarda olg'a surilgan nazariy va amaliy fikrlar o'zbek adabiy tili bo'yicha yozilgan darslik – qo'llanmalarda ham o'z aksini topgan va topmoqda.

¹² Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм, -Т., «Ўқитувчи», 1980, 144-б.

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi.

Xullas, frazeologik birliklar va ular bilan bog‘liq hodisalar, ularning ma’noviy va vazifaviy xususiyatlari murakkab, sermunozara bo‘lib, ular bir necha tadqiqot ishlarini talab qiladi. Ular bir tomondan til birligi sifatida muayyan tushunchani ifodalash xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi bir tomondan har bir xalqning ko‘p asrlik turmush tarzi, madaniyati, ma’naviyati, urf – odatlari va an’alarining badiiy asarlarda aks ettiruvchi, shu bilan bir paytda badiiy matnda muayyan holatni, voqelikni obrazli, ta’sirchan bo‘lishini ta’minlovsi vosita ham hisoblanadi.

1.2. Badiiy matnda frazeologizmlarning o'рни

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, material, asosiy qurolidir. Bizning ong-tuyg'umizga ta'sir etib, bizni hayajonga soladigan obraz va manzaralar, lug'aviy birliklar va gaplar yordamida tasvirlanadi. So'z san'atkori badiiy asar tili ustida ishlar ekan, tilda turg'unlik kasb etgan, nutqda keng iste'mol qilinadigan so'z, forma va oborotlarni ishlatadi, o'tkinchi, ikkinchi darajali, til taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lmagan elementlarni o'z asarlari tiliga kiritmaslikka harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi til boyligidan fikrni eng to'g'ri, aniq va lo'nda qilib ifodalaydigan vositalarni terib, saralab ishlatadi. Shu yo'sinda u tildan foydalanishning, gapirish va yozishning o'ziga xos mezonini, namunasini yaratadi. Yozuvchi yoki so'zlovchi qanchalik iste'dodli, mehnatsevar bo'lsa, bu namuna shunchalik hayotiy, jozibador bo'lib chiqadi.

Yozuvchining tilga mana shunday munosabatda bo'lishi, uning so'z tanlash san'ati adabiy til va so'zlashuv uslubi takomilida jiddiy rol o'ynaydigan omillardan biridir. Shuning uchun yozuvchining adabiy tilni rivojlantirishdagi xizmati to'g'risida gapirganda, u yaratgan yangi lug'aviy birliklar bilangina cheklanib qolmasdan, uning nutq ravonligi, sofliqi va ta'sirchanligi uchun kurashi tug'risida gapirish lozim.

Adabiy tilning sofliqi va ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalardan biri frazeologizmlar bo'lib, badiiy adabiyot so'zlashuv nutqi frazeologizmlari uchun ham asosiy manba hisoblanadi.

Badiiy nutq obrazli nutq, obrazli til hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotda hayot obrazlar, manzaralar yordamida aks ettiriladi. Bizning ong – tuyg'umizga ta'sir etib, bizni hayajonga soladigan bu obraz va manzaralar so'zlar yordamida, so'zlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi.

Frazeologik iboralar zahirida ma'lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zahiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga

harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar.

Frazeologik birliklar eng ko‘p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy – ommabop matnlarda qo‘llaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan o‘rni muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda quyidagi maqsadlarda foydalanishadi:

1) voqea – hodisani obrazli ifodalash uchun: ko‘pgina frazeologik birliklar konkret, ko‘rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs – predmet, voqea – hodisaning obrazli ifodasi bo‘lib keladi. Masalan: *tili uzun, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi* kabilar. Obrazli ifodalash funksiyasi ichki ta’sirchan shaklga – obrazli tasavvurga ega bo‘lgan frazeologik birliklar uchun ko‘proq xarakterlidir. Ba’zan frazeologizmlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik “radiatsiyasi” baxsh etadi.

Misol: - *Nima? Soatovning hozirgina mayus boqib turgan ko‘zlarida o‘t yonib ketgandek bo‘ldi* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 212.).

2) turli holatlarni baholash uchun: frazeologizmlarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea – hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham badiiy asarlarda o‘zining salmoqliligi bilan ajralib turadi.

Misol: *Uning ko‘zlari olayib o‘rnidan sapchib turdi; Soatning onasi bir chekkada mung‘ayib turar, odamlardan uyalgandek yuzini qalin ro‘mol bilan to‘sib olganmish* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 213, 7.). Birinchi va ikkinchi gaplardagi frazeologik birliklar inson holatini baholash, salbiy yoki ijobiy munosabatlarni bildirishga xizmat qiladi.

3) badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: o‘zbek tili frazeologik sistemasida mazkur birlikning katta qismi asosiy ma’no – mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki so‘zlovchining shodligi, g‘azabi, nafrati, o‘kinchi, qo‘rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi.

Misol: 1) *Kulganida chehrasidan nur porlab ketgandek bo‘ldi* (O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar, 30.);

2) *Xudoga shukr, ko'ngli joyiga tushdi* (O'.H. shu asar, 280.);

3) *Qo'lini tushirdi-yu, ko'cha eshik oldida o'ziga qarab turgan Muqaddamni ko'rib xijolatdan yuzlari lovillab ketdi* (O'.Hoshimov. Bahor qaytmaydi, 468.);

4) *Hozir hech kimni, hatto, onamni ko'rishga ko'zim yo'q edi* (O'.Hoshimov. Dunyoning ishlari, 31.). Yuqorida keltirilgan asar parchalarida qo'llanilgan frazeologik birliklar birinchi gapda baxtiyorlikni, ikkinchi gapda taskin topishni, tinchlanishni, uchinchi gapda uyat va qo'rquvni, to'rtinchi gapda g'azabni kabi munosabatlarni ifodalab kelishga xizmat qilmoqda.

4) nutqda ekspressivlikni ifolash uchun: “Ekspressiya” so'zi lotincha bo'lib, nutqning ta'sirchanlik xususiyatini ifodalaydi, bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi.

Misol: 1. *Daf'atan kayfi butunlay tarqab ketganini his etdi* (O'.H. Tushda kechgan umrlar, 64.);

2....*Cholim kun yozilganda burnidan tortsa yiqilgudek bo'lib qaytib keldi* (O'.H. Ikki eshik orasi, 179.);

3. *Onam kitobni ko'rishi bilan ko'zlari quvonchdan porlab ketar, uzundan – uzoq duo qilar, peshonamdan o'pib, yakkash bitta gapni takrorlar edi: - Sen mening suyangan tog'imsan, o'g'lim...* (O'.H. Dunyoning ishlari, 34.);

4. *Onamning issiq nafasi urilib turar, u sirg'anib – sirg'anib borar, og'ir hansirar edi* (O'.H. Dunyoning ishlari, 18.);

5. *Ularning ko'nglini olaman, deb ikki o'rtada onalari adoyi tamom bo'pti* (O'.H. Dunyoning ishlari, 9.). Yuqorida berilgan gaplarning tarkibidagi leksik va grammatik vositalar matnning ekspressivligini oshirishga xizmat qilmoqda. Gaplarda berilgan frazeologik birliklarning semantik strukturasidagi kuchaytiruv semasi ularning ekspressivligini ko'rsatishga vosita bo'ladi.

5) badiiy matnda satira va yumor hosil qilish uchun: yumor va satira vositalari orasida frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Bu esa ularning ichki tabiati bilan bog'liq, chunki ko'pgina frazeologik birliklarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq, piching singari ma'no nozikliklari bo'ladi. Frazeologizmlar badiiy

asardagi qahramon nutqini, uning soʻzlash ohangidagi yumoristik yoki satirik ishorani taʼkidlash vositasi boʻlib xizmat qiladi¹³.

Misol: 1. *Birovning daydi sigiri, birovning shaytonga dars beradigan echkisi zum oʻtmay ekin oralab ketadi* (Oʻ.H. Dunyoning ishlari, 40.);

2. *Ariq qazib boʻlmasa, er chopib boʻlmasa...oʻzimizniyam pataqimizga qurt tushib turibdi...*(Oʻ.H. Ikki eshik orasi, 189.);

3. *Bir toʻnnalik beton plita shunchaki oʻz ogʻirligini koʻtaraolmay chokidan uzilib ketdi. Bir emas, uch qavatni bosib qoldi* (Oʻ.H. Ikki eshik orasi, 6.).

Frazeologizmlarning xilma – xil qoʻllanish darajasiga ega boʻlishi ularning uslubiy boʻyogʻiga ham bogʻliq. Badiiy asarlarda, umuman, adabiy tilda funksional jihatdan xoslanmagan koʻpgina frazeologik birliklar tez – tez uchraydi.

Frazeologizmlar badiiy asarlarda asosan ekspressiv – baho vositasi boʻlib kelganligi uchun ularning umumtil miqyosidagi darajasi u yoki bu yozuvchining maʼlum bir asaridagi qoʻllanish miqdori bilan doimo mos kelavermaydi. Har bir yozuvchining mazkur birliklardan oʻz asarida foydalanish mahorati bilan ham farq qiladi. Shu sababli ham koʻpgina frazeologik birliklar oʻzining kuchli mohiyati bilan asar jozibadorligi oshiradi.

Maʼlumki, frazeologizmlar obrazli til birliklari xisoblanadi. Shu bois, yozuvchi va shoirlar ulardan keng foydalanadilar. Tildagi obrazlikni ifodalovchi vositalar ichida frazeologizmlar aloxida oʻrin tutadi. Chunki ular kesatiq, nafrat, jirkanish, soʻkish, qargʻish kabi salbiy; erkalash, hazil, ragʻbatlantirish kabi ijobiy qoʻshimcha maʼno nozikliklarini ifoda etuvchi obrazli birikmalar hisoblanadi. Frazeologizmlarning asosiy qismi nutqda maʼlum uslubiy maqsad – ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu bois, frazeologizmlar badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini toʻla ochishda, voqea-hodisa, holatlarini obrazli, boʻrttirib tasvirlashda qoʻllanadigan muhim til birligi hisoblanadi. Yozuvchi shu maqsadda ulardan foydalanar ekan, tarjimonlar esa bu maqsad – vazifalarni toʻla anglashi va

¹³ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: Филол.ф.доктр...авреф. – Тошкент, 1993. – Б. 25.

o'zga til egalariga uni aniq etkazishi kerak bo'ladi. Buning uchun tarjimon asar tili haqida, uning lisony xususiyatlari bilan tanish bo'lmog'i va shunga asoslanib ish ko'rmog'i darkor.

Ma'lumki, frazeologizmlar badiiy asar qimmatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Yozuvchi va shoirlar frazeologik birliklarni o'z asarlarida qahramon xarakteri va hodisalarni ochishda ishlatadilar. Voqea – hodisalarni tasvirlashda o'quvchiga estetik zavq berishda ulardan mohirona foydalanadilar. Har qanday frazeologizm o'sha xalqning turmush sharoiti, udumlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Frazelogizmlarning kelib chiqish omillari ham har bir xalqning o'z mentalitetiga xosdir.

Frazeologik birliklarning badiiy matnda qo'llanilishi bilan bog'liq jarayonlari o'ziga xos tarzda murakkab hamdir. Mazkur birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma'nolar mavjud. Frazeologik birliklarning uslubiy ma'nosi ikki komponentdan iborat: a) ekspressiv – baho bo'yog'i; b) funksional – uslubiy bo'yoq. Bu ikki xususiyati badiiy matnda qo'llanilganda ham frazeologizmlar tarkibida yashash huquqiga ega. Mazkur til birliklarining uslubiy xoslanishini belgilashda ichki shaklning jozibadorligi, semantik, ohangdoshlik va miqdoriy mezonlardan kompleks foydalanish, frazeologizmlarning ekspressiv – baho bo'yog'ini ham inobatga olish yaxshi samara beradi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalandirishda frazeologik iboralarning ma'nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo'lmoq – sabr kosasi to'lmoq, burni ko'tarilmoq – dimog'i shishmoq, yaxshi ko'rmoq – ko'ngil bermog', ikki oyog'ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og'ziga tolqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma'nodoshlikka misol bo'ladi. Jumla tarkibida kelgan ma'nodosh iboralar qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko'rsatib tasvirlashga xizmat qiladi.

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko'zi o'ngida aniq va to'la gavdalandirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-

holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar, odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo'llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o'zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no nozikliklari bilan to'yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin.»¹⁴ Frazеologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan.¹⁵ Badiiy matnda eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

1.Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni almashtirish: *Yana uch kun jim turib bersangiz, mulla mingan velosipeddek yuvosh bo'lib qolasiz. (S.Ahmad) Mingboshining falon – falonlari bizni ko'ziga iladimi?,-deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og'zingga paxta tiqdingmi hammang? Dunyoda o'z oyog'iga o'zi bolta chopadigan ahmoq ham bo'ladimi? (CHo'lpon)*

2.Ibora tarkibini kengaytirish. Bunda ibora tarkibiga yangi so'z kiritiladi. Tilimizda jar solmoq iborasi mavjud. Cho'lpon uni qo'shkarnayi bilan jar solmoq tarzida kengaytiradi: *Mingboshilikni tortib olib, el ko'zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo'shkarnayi bilan jar soladiganday!*

3.Ibora tarkibini qisqartirish. Ibora tarkibidagi ayrim so'zlarni tushirib qo'llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o'z badiiy-lisoniy maqsadiga ko'ra foydalanadilar. Tilimizda qo'lini yuvib qo'ltig'iga urmoq iborasi mavjud bo'lib, uning ma'nosi «ixlosi qaytib, ishonmay qo'yib, diqqat-e'tibordan soqit qilmoq» tarzida izohlanadi. Cho'lpon «Kecha va kunduz» romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo'llaydi: *Undan keyin,*

¹⁴ Шомақсудов А ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. –Т: 1974. 70-б.

¹⁵ Ўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.-Самарқанд, 1999.

qishloq odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi. Bu iboraning noyib to'ra nutqida qo'l yuvmoq tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma'no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to'raning «voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to'g'ri keladi» demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta'kidlangan. Bundan ko'rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti «tashlab chiqmoq», «ajralmoq», «qochib qolmoq» kabi yangi ma'no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo'llanilgan iboralarni o'rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy matnda, umuman, yozma va og'zaki matnlarda frazeologizmlar qo'llanilganda, bu birliklar bir qator funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalarning bir guruhi uzual, ya'ni lisoniy xarakterga ega bo'lsa, qolganlari okkazional, ya'ni nutqiy (uslubiy) funksiyalardir. Frazeologizmlarning ichki ma'nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro'yobga chiqadi.

1.3. Frazelogizmlarning turlari

Frazelogizmlar tashkil etuvchilarga ko'ra qo'shma leksemalar, so'z birikmasi va gaplarga o'xshaydi. Ko'proq ular qo'shma leksemalar kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Frazelogizmlar lisonda barcha lisoniy birliklarga xos umumiylik tabiatiga va nutqda xususiylik sifatiga ega hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologizmlarni turlarga tasnif etishda ham ularning birikadigan komponentlariga ko'ra, qo'llanilish doirasi va darajasiga ko'ra yondashiladi.

Frazelogizmlarning morfologik shakli, tayanch komponentiga ko'ra tasniflash, frazeologizmlarning yana bir tabiatini, ya'ni uning turli so'z turkumlaridan bo'lgan tayanch komponent atrofiga birikib bir butun ma'noni anglatganini ko'rsatadi. Chunki grammatik tayanch komponentning ma'nosi bir qarashda butun frazeologizmning kategorial ma'nosiga kamdan-kam mos kelmaydiganday ko'rinsa-da, haqiqatda bunday emas. Frazelogizmlarning shakllanishida tayanch komponent bo'lib keluvchi ot va fe'l asosiy manba xisoblanadi. Chunki ko'pgina frazeologizmlar tarkibida ot va fellar asosiy biriktirish va shakllantirish vazifasini o'taydi.

Frazelogizmlarning semantikasiga, grammatik qurilishiga, sintaktik vazifasiga, uslubiyatiga oid qator ilmiy izlanishlar yuzaga keldi.

Frazelogizmlarga morfologik tizim nuqtai nazaridan ham yondashildi, ya'ni ularning u yoki bu grammatik turkumlarga mansubligi belgilandi. Bu muammoga bag'ishlangan ayrim ishlarning mavjudligiga qaramay, frazeologizmlarni turkumlashning ko'pchilik tomonidan tan olingan mezonlari hozirgacha ishlab chiqilgani yo'q. Biz shu masalaga alohida e'tibor bergan holda frazeologizmlarning shakli bilan ma'nosi orasidagi moslik, parallelilik darajasini aniqlashni maqsad qilib qo'ydik. Bu masalani hal qilishda tilshunoslar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, grammatik tayanch komponent frazeologizmlarning kategorial ma'nosini ham ifodalaydi. Frazelogizmlarning tuzilishini aniqlash va guruhlashda prof.

SH.Rahmatullaevning “Obrazli fe’l frazeologik birliklar barcha iboralarning qariyb uchdan ikki qismiga teng kelib, grammatik kuzatishlar uchun juda boy manba bo‘lib xizmat qila oladi”, - degan fikriga suvandik. Frazeologizmlarni tasniflaganda uning kategorial ma’nosini ham, semantikasini ham hisobga olish lozim bo‘ladi.

Faol qo‘llaniladigan frazeologizmlarni qaysi so‘z turkumiga tegishli tayanch birliklar bilan ifodalanishiga qarab, quyidagi tasnifini berish mumkin:

1. Tayanch komponenti ot bilan shakllangan frazeologizmlar.
2. Tayanch komponenti fe’l bilan shakllangan frazeologizmlar.
3. Tayanch komponenti ravish bilan shakllangan frazeologizmlar.
4. Turli kategoriyadagi so‘zlardan shakllangan frazeologizmlar¹⁶.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so‘z turkumiga mansub.

Fe’l turkumiga mansub frazeologizmlar: [me’dasiga tegmoq], [yaxshi ko’rmoq], [holdan toymoq], [sabr kosasi to’lmoq], [tepa sochi tikka bo’lmoq], [og’ziga talqon solmoq], [podadan oldin chang chiqarmoq].

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [ko’ngli bo’sh], [rangi sovuq], [yuragi toza], [avzoyi bejo], [dili siyoh], [kayfi buzuk].

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: [ipidan-ignasigacha], [ikki dunyoda ham], [miridan-sirigacha], [ha-hu deguncha].

So‘z — gaplarga mansub frazeologizm: [turgan gap], [shunga qaramay], [katta gap].

Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so‘z turkumi bo‘yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati etarli darajada o‘rganilmagan.

Frazeologizm leksik birlik kabi qo‘llanish darajasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko‘ra umumiste’mol frazeologizmi ([holdan toymoq], [shunga qaramay], [ro’yobga chiqmoq]) va qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizm qo‘llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so‘zlashuv) bilan ham ma’lum bir tafovutlarga ega:

¹⁶ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 92.

— eskirgan frazeologizm: [alifni kaltak demoq], [aliflayloni bir cho‘qishda qochiradigan], [dastin aliflom qilib, kallasini xam qilib], [eng silkitmoq];

— dialektal frazeologizm: [alag‘da bo‘lmoq] (xavotir olmoq), [ko‘ngli tob tashladi] (ezildi), [halak bo‘lmoq] (ovora bo‘lmoq), [qumortqisi quridi] (intiq bo‘lmoq);

— ilmiy frazeologizm: [nazar tashlamoq], [ko‘zga tashlanmoq], [chambarchas bog‘lanmoq], [to‘g‘ri kelmoq], [imkoniyatlar doirasi], [qulay qurshov];

— badiiy frazeologizm: [sabr-kosasi to‘lmoq], [og‘zining tanobi qochmoq], [og‘zidan bodi kirib, shodi chiqmoq], [qildan qiyiq axtarmoq], [six ham kuymasini, kulob ham], [boshida yong‘oq chaqmoq];

— so‘zlash

uv nutqi frazeologizmi: [arpasini xom o‘rmoq], [erga urmoq], [yuragi qora], [ko‘zi tor], [ko‘zi och], [boshi ochiq]¹⁷.

Frazeologizmning aksariyati badiiy va so‘zlashuv nutqiga xos. Aynan shu xususiyati bilan frazeologizmlarda o‘z ma‘no, ya‘ni lisoniy ma‘no va qo‘shimcha ma‘no, konnotativ ma‘nosi borligi bilan ham farq qiladi. Konnotativ ma‘nolar frazeologizmlarda kuchli namoyon bo‘ladi. Frazeologizmlar semantik tuzilishidagi stilistik bo‘yoqli ko‘pgina tilshunoslar boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi muhim belgisi deb bilishadi. Shu jihatdan tilshunos A.V.Kuninning fikrlari xarakterlidir: “Predmetlar va jarayonlarning ekspressivlik xarakteristikasi ko‘pgina frazeologizmlarga xosdir, lekin bu xususiyat ularning nominativlik funksiyasini yo‘qotmaydi, faqat ularga ma‘lum stilistik yo‘nalish bag‘ishlaydi”.

Frazeologizmlarning konnotativ ma‘nolari kuchli va ko‘p qirrali bo‘lib, bu ma‘nolar nutqda so‘zlovchining voqea va hodisalarga, turli predmetlarga emotsional-ekspressiv qirralarga ega bo‘lgan sub‘ektiv munosabatini ifodalaydi. Shu jihatdan frazeologizmlarning konnotativ ma‘nosida to‘rt xil ma‘no nozikligini kuzatish mumkin:

¹⁷ Сайфуллаева Р., Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 130.

1. Frazelogizmlarda emotsionallik mavjud bo'lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy emotsiyalar o'zining ifodasini topadi.

2. Frazelogizmlar semantikasida ekspressivlik mavjud bo'lib, ular orqali fikr tez, kuchli va obrazli ifodalanadi.

3. Frazelogizmlar semantikasida baho-munosabat mavjud bo'lib, ular orqali voqea-hodisa va jarayonlarga so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatlari ifoda etiladi.

4. Frazelogizmlar stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, ular ma'lum funksional uslubda va ma'lum stilistik maqsadda ishlatiladi¹⁸.

Konnotativ ma'noning sanab o'tilgan to'rtala komponenti har bir frazeologizmda u yoki bu tarzda mavjud bo'ladi. Ularning birida emotsionallik, ikkinchisida ekspressivlik, boshqasida baho-munosabat kuchliroq darajada namoyon bo'ladi. Masalan, *ko'ngli gul-gul ochilmoq, yuzi nurga to'lmoq, diydori qursin, beti qursin, er yutkur, isqotlariga buyursin, ko'zlari porlab ketdi* kabi frazeologizmlarda konnotativ ma'noning to'rtala komponenti mavjuddir.

Frazelogizmlar tarkibidagi so'zlarning ko'chma yoki o'z, almashtirish erkin yoki almashtirish mumkin bo'lmagan holatlariga ko'ra uch turli bo'ladi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar frazeologik qo'shilmalar deyiladi: hordiq (to'g'ri ma'noda) chiqarmoq (ko'chma ma'noda), holdan (to'g'ri ma'noda) toymoq (ko'chma ma'noda), so'zida (to'g'ri ma'noda) turmoq (ko'chma ma'noda) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar frazeologik butunliklar deb ataladi: ko'kka ko'tarmoq (maqtamoq), eti suyakka yopishgan (ozg'in), yuragi orqasiga tortmoq (qo'rqmoq) kabi.

Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar

¹⁸ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 86.

deyiladi: sichqonning inini ijaraga olmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, temirni qizig'ida bosmoq, oyog'ini tirab olmoq kabi.

Frazeologik qo'shilma yoki butunliklar so'zlarni o'zaro biriktirish yo'li bilan yasalgan yaxlit iboralar bo'lib, ularning tarkibidagi ba'zi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarning komponentlarini almashtirish mumkin bo'lmaydi. Oyog'ini tirab turmoq yoki oyog'ini tirab turib olmoq bir ma'noni ifodalashi sababli frazeologik sinonimlar hisoblanadi, biroq ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. SHuningdek, bag'ri tosh va mehri tosh iborolari frazeologik sinonimlar bo'lib, ularga o'z ma'nosi bilan qarama-qarshi bo'lgan ko'ngli bo'sh va mehri bo'sh iborolari frazeologik antonimlardir. Ba'zan frazeologizmlar shaklan to'g'ri kelib, turli ma'nolarni ifodalaydi. Bunday hodisa frazeologik omonimiya deyiladi: javobini bermoq – 1) biror savolga javob qaytarmoq; 2) biror xizmatchini ishdan bo'shatmoq kabi.

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin so'z birikmalari asosida hosil bo'ladi. Biroq ular ko'chma ma'no kasb etib, komponentlari o'zaro birikib yaxlit holda qo'llanishi natijasida singib ketadi. Masalan, joyiga keltirmoq, o'rniga qo'ymoq iborolari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular ko'chma ma'noda qo'llanib, "ishni (vazifani) yaxshi bajarmoq", "biror ishni tartibli bajarmoq" ma'nolariga ega bo'lgan. Frazeologizmlarning ba'zi turlari milliy urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini so'zma-so'z ag'darmay, to'g'ri keluvchi iboralardan – muqobillardan foydalaniladi.

Frazeologizmlar semantik tomondan umumlashgan ko'chma ma'no ifodalasa, grammatik tomondan ularning butunligi komponentlarining o'zaro birikuvi va gapda ham shu tartibini saqlab qolishi bilan izohlanadi.

Bob bo'yicha xulosa.

Frazeologizmlarning o'rganilishi, uning chegarasi haqida tilshunoslar hali bir to'xtamga kelishmagan.

Frazeologik birliklarni o'rganish o'zbek tilshunosligi oldida yangi imkoniyatlarni ochadi, til lug'at tarkibining kengayishiga sabab bo'ladi.

O'zbek tilida frazeologizmlar bir qancha ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan, muhim xulosalar berilgan, hozirda badiiy asarlar tilida mazkur til birliklarining tadqiqi davom etmoqda.

Frazeologizmlar xalq boyligi bo'lganligi sababli ham uning manbalari u yoki bu xalqning yashayotgan joyining tabiati, iqtisodiy tuzumi, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati kabilar bilan chambarchas bog'lanadi.

Frazeologizmlar uch turli bo'ladi: frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar.

Frazeologizmlarning konnotativ ma'nosida to'rt xil ma'no nozikligini kuzatish mumkin:

1. Frazeologizmlarda emotsionallik mavjud bo'lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy emotsiyalar o'zining ifodasini topadi.

2. Frazeologizmlar semantikasida ekspressivlik mavjud bo'lib, ular orqali fikr tez, kuchli va obrazli ifodalanadi.

3. Frazeologizmlar semantikasida baho-munosabat mavjud bo'lib, ular orqali voqea-hodisa va jarayonlarga so'zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatlari ifoda etiladi.

4. Frazeologizmlar stilistik bo'yoqqa ega bo'lib, ular ma'lum funksional uslubda va ma'lum stilistik maqsadda ishlatiladi.

O'.Hoshimov asarlarida frazeologizmlarning semantikasi

2.1. O'.Hoshimov asarlarida o'zgarishga uchramagan frazeologizmlar

Har bir yozuvchining frazeologizmlardan foydalanish uslub va yo'nalishlari bo'ladi.

Morfologik va sintaktik sath hodisalarini o'zida mujassamlashtirgan grammatika va unga xos ma'nolar frazeologizmning "ichki" tomoni bilan xarakterlanuvchi, farqlanuvchi ma'nolardir. Bunday ma'nolar, eng avvalo, funksional xususiyatlarga emas, balki shakliy xususiyatlarga asoslangan bo'ladi.

Alohida olingan frazeologizmlar ma'nosi predmet - hodisalar haqida tushuncha anglatish xususiyatiga ega bo'ladi; gap ma'nosi esa ana shu predmet-hodisalarning ob'ektiv borliqdagi holatini bildiradi. Boshqacha ta'bir bilan aytganda, alohida olingan frazeologizmlar gapdan tashqarida ba'zan mavhumlik ma'nosiga ega bo'lsa, gap tarkibida ular konkret ma'nolar kasb etadi.

Lug'aviy va grammatik ma'nolar biri boshqasi bilan bog'liq bo'lgan semantik tushunchalardir. Lug'at bo'lmasa, grammatika ham bo'lmaganidek, lug'aviy ma'nolar bo'lmasa, grammatik ma'nolar ham bo'lmaydi. Yana soddaroq qilib aytganda, frazeologizm va so'z bo'lmasa, nutqiy-sintaktik butunliklar ham bo'lmaydi. Sintatik butunliklar (aniqrog'i, gaplar)ning ma'nosi, ularning kommunikativ qiymati ma'lum ma'nolarda qo'llangan frazeologizmlar, so'zlar orqali belgilanadi. Chunki frazeologizmning haqiqiy ma'nosi sintaktik qurshovda yuzaga chiqadi. Frazeologizmlar nutqiy jarayonda (sintaktik qurshovda) funksional ma'noga ega bo'ladi. Frazeologizmlarning nutqiy jarayonda funksional ma'no kasb etishi fikrning tug'ilishiga turtki bo'ladi. Yana ta'kidlaymiz: frazeologizmlarning funksional ma'nolari sintaktik qurilmalar doirasida ma'lum bo'ladi. Har qanday gap ana shu jarayon mahsuli sifatida konkretlashadi, boshqa gaplardan farq qiladi. Gaplardagi fikr (mazmun)ning individuallashuvi (xususiylashuvi) quyidagi to'rt komponent hisobiga amalga oshadi. Ular: a) frazeologizmlarning individual lug'aviy ma'nolari; b) frazeologizmlarning grammatik ma'nolari; v)

frazeologizmlarning nutq vaziyati bilan bog'lik, funksional ma'olari; g) frazeologizmlarning boshqa so'zlar bilan munosabatidan hosil bo'luvchi qurilmalar ma'nosi.

Ana shu to'rt komponent asosida frazeologizmlarning konnotativ ma'nolari shakllanadi. Shu narsaga e'tibor berish zarurki, frazeologizmning semantik-grammatik modellashtirilishida uning ayrim lug'aviy birliklari muhim ahamiyat kasb etadiki, ularni inkor etish to'g'ri bo'lmaydi. Bunday lug'aviy birliklarning frazeologizmga bo'lgan munosabati grammatik xarakter kasb etib, ularning leksik ahamiyati kuchsizlashadi. Shuni alohida e'tirof etish zarurki, frazeologizmning semantik qurilishida so'zlarning denotativ ma'nolari emas, balki ularning ma'lum bir lug'aviy guruhga xoslangan konnotativ ma'nolari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki frazeologizm semantik qurilishida so'zlarning denotativ ma'nolari so'nib, konnotativ ma'no qiymati kasb etish hollari ko'p uchraydi. Frazeologizm semantikasi turli sabablar bilan bog'lanuvchi murakkab qurilma bo'lganligi uchun frazeologizmning grammatik va semantik jabhasida muttasil ravishda nomuvofiqliklar yuz berib turadi¹⁹.

Mumtoz va hozirgi badiiy adabiyotda frazeologizmlarning paydo bo'lishining ikki usuli yaqqol ko'zga tashlanadi.

Birinchidan, badiiy asarlarda til taraqqiyoti jarayonida ko'p ishlanib, silliqlashib, takomillashib, bir butun holga kelib qolgan frazeologizmlardan ham o'rinli foydalanilganligini kuzatamiz. Ular adabiy tilda ham, so'zlashuv nutqida ham qollaniladi: Norxola achchig'idan tushib, muloyim ohangda gapirardi (S.Nazar. Yashil boylik, 101). Bu gapni eshitib, oyimning achchig'i qistab ketdi (H.Nazir. CHo'l havosi, 71). Bu misollarimizda "achchig'idan tushib" frazeologizmi umumnutqqa, "achchigi qistab" iborasi esa individual nutqqa xoslangan.

Ikkinchidan, frazeologizmlar og'zaki va yozma nutqda davr va sharoit talabiga ko'ra shakl yoki mazmun jihatidan o'zgarishga uchraydi. Masalan, so'z san'atkorlari o'z asarlari g'oyasining kitobxonga tez etib borishini ta'minlash,

¹⁹ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутки фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 84.

badiiyligini kuchaytirish uchun frazeologizmlardan foydalanadilar, asar mazmuniga moslashtiradi. Bunday vaqtda baʼzan frazeologizmlarning maʼnosi kengayadi, oʻzgaradi. shakli ixchamlashadi yoki tarkibida oʻrin almashtirishlar yuz beradi. Masalan, hozirgi oʻzbek adabiy tilida “oʻz gazi bilan oʻlchamoq” frazeologizmi mavjud. Abdulla Qahhor Oʻrmonjonning kelgusi avlod didini belgilashga biz ojizlik qilamiz, ularning did-orzusini tushunishga bizning nuqtai nazarimiz toʻgʻri kelmaydi, degan fikrini yorqin ifodalash uchun mana shu frazeologizm zahiridagi “oʻzining oʻlchovi, andazasi bilan oʻlchash” tasavvuridan, obrazidan foydalanadi. Abdulla Qahhor bu obraz talqiniga “oʻlchashga gazi yaramay qolmoq, eskilik qilmoq” tarzida yangicha yoʻnalish, yangicha tus beradi. Natijada “tushunishga ojizlik qilmoq” degan maʼnoni ifodalaydigan yangi, original frazeologizm vujudga keladi: oʻlchagani gazi eskilik qilmoq. Bu frazeologizm Oʻrmonjonning fikrini yorqin, obrazli qilib ifodalashga imkon bergan: Ellik yildan keyin qandoq boʻlishini bilmaymiz, chunki bu mana shu uylarda tugʻiladigan, shu qishloqda oʻsadigan bolalarning didiga, orzusiga bogʻliq. Bularning didini. orzusini oʻlchagani bizning gazimiz eskilik qiladi (A.Qahhor. Asarlar. 3, 59)²⁰.

Ulugʻ yozuvchi A.Qahhor singari Oʻ.Hoshimovning ham frazeologizmlardan foydalanishdagi oʻziga xos maktab yoʻli bor desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Badiiy asarlarda qoʻllanilgan frazeologik birliklarni mufassal oʻrganganimizda, ularni xalqchil, adabiy tilga oidligi yoki individual xarakterga ega xususiyatlari bilan ham farqlab oʻrganishimiz maqsadga muvofiqdir. Mazkur til birliklarining qaysi adabiy tilga oid, qaysi yozuvchining individual yondashuvi asosida nutqiy jarayonda yaratilgan, buni biz Sh.Rahmatullaevning “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati”ga tayangan holda farqlashga harakat qildik. Bevosita solishtirishlar natijasida yozuvchining tildan foydalanish mahorati namoyon boʻladi.

Oʻ.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Bahor qaytmaydi” va shu kabi asarlarida qoʻllanilgan

²⁰ Бозорбоев К. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол.ф.номз...дисс. – Самарқанд, 2001. – Б. 42.

frazeologik birliklarni to‘plab, o‘rganganimizda o‘zgarishga uchramagan va qayta ishlangan frazemalarni ajratib tahlil etdik. Quyida ulardan bir qanchasini tahlilga tortamiz:

1. Pinakka ketmoq

Ma’nosi: a) uxlab qolmoq; b) o‘ylanish holatida bo‘lmoq (xayolga cho‘mmoq).

Misol: *Alimardon yaproqlarning pirpirab uchishini tomosha qila – qila pinakka ketdi* (O‘.H. Bahor qaytmaydi, 468.).

2. Damini rostlamoq

Sinonimi: nafasini rostlamoq.

Ma’nosi: to‘xtab, nafas olmoq, tin olmoq, dam olmoq.

Misol: *Nihoyat, sekin – sekin damini rostladi, hovliga tikilgancha bir tekis, chuqur – chuqur nafas ola boshladi* (Bahor qaytmaydi, 465.).

3. Burnini suqmoq

Sinonimi: a) bosh suqmoq; b) burnini tiqmoq; s) tumshug‘ini tiqmoq (salbiy); d) chovlisini solmoq.

Ma’nosi: hamma narsaga aralashmoq

Misol: *Aytyapmanku, burnini suqmagan joyi yo‘q edi bu bolaning* (Tushda kechgan umrlar, 43.).

4. Og‘zidan bol tommoq

Ma’nosi:

Misol: *Matematika o‘qituvchisi Hakimov katta tanaffusda og‘zidan bol tomib yaponlarni maqtabdi* (Tushda kechgan umrlar, 82.).

5. Qo‘y og‘zidan cho‘p olmaslik

Ma’nosi: nihoyat darajada beozor, mo‘min

Misol: *To‘laganova qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan farishta* (Tushda kechgan umrlar, 226.).

6. Olamdan o‘tmoq

Varianti: olamdan ketmoq

Ma’nosi: o‘lmoq

Misol: *Meni shuncha o'limdan asrab qolgan odam shundoq ko'z o'ngimda olamdan o'tdi* (Ikki eshik orasi, 192.).

Yozuvchi qalamiga oid asarlarda ba'zi iboralar sinonimlari bilan almashtirilgan, ba'zan esa tarkibidagi ayrim so'zlarning tushirib, qisqartirilib ham qo'llanishlari holati uchraydi. Bu holat frazeologizmlarning ma'nosini umumlashtirish, abstraktlashtirish, kengaytirish uchun xizmat qiladi. O'.Hoshimov qahramonlarning bir – biriga bo'lgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi so'zlarning ma'nosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan.

1. Umri bino bo'lmoq

Ma'nosi: tug'ilganidan beri hayotida (o'zining)

Misol: *Bir og'iz aytmadim: "Hoy, men ham odammanku, umrim bino bo'lib, halovat ko'ramanmi, yo'qmi?" – demadim* (Tushda kechgan umrlar, 5.).

2. Qulog'ini qoqib qo'liga bermoq

Sinonimi: a) quloq – miyasini qoqib, qo'liga tutqazmoq; b) quloq – miyasini emoq.

Ma'nosi: so'rayverib, sergapligi bilan miyasini charchatmoq, shovqini bilan bezdirmoq.

Misol: *Har kuni o'n martadan qulog'ingni qoqib qo'lingga beradigan xotining bo'lmasa, yo'lingga termulib turgan bolalaring bo'lmasa, gapni kim qo'yibdi senga!* (Ikki eshik orasi, 8.).

3. Og'iz ko'pirtirmoq

Varianti: og'zini ko'pirtirmoq

Ma'nosi: ko'p va maqtanib gapirmoq, ortiqcha maqtab yuborish.

Misol: *Hakimov og'iz ko'pirtirib, yaponni ulug'lagan* (Tushda kechgan umrlar, 82.).

4. San – manga bormoq

Sinonimi: adi – badiga bormoq

Varianti: san-u manga bormoq, san-mangacha etib bormoq.

Ma'nosi: kim kim bilan janjallashuv, tortishuv darajasiga etib bormoq.

Misol: *Bironta qo'shni bilan san – manga bormaganmisizlar?* (Tushda kechgan umrlar, 35.).

5. Kapalagi uchmoq

Ma'nosi: 1) kayfi uchmoq; 2) gap eshitib hayratda qolmoq

Misol: *Sirojiddin fizkultura institutiga kirmoqchi ekanini aytgan edi, dadasining kapalagi uchib ketdi. "Hozirgi imtihonni bolalar emas, ota – onalar topshiradi, u yerda mening hech kimim yo'q!" deb dag'dag'a qildi.*

Frazeologik ibora zamiridagi obrazni konkretlashtirish ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi asarlarida ba'zi frazeologizmlarning qayta – qayta ishlatilish holatlari kuzatilsa ham, ammo ularning vazifasi jarayonni umuman boshqacha yoritish, ma'no ko'lamini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

1. Ko'ngliga g'ul-g'ula tushmoq

Sinonimi: tashvishga tushmoq

Varianti: ko'ngliga g'ul-g'ula solmoq; ko'ngliga g'ashlik tushmoq.

Ma'nosi: biror narsadan tashvishlanmoq, behalovat bo'lmoq.

Misol: *Qo'limni sekin bo'shatdim-u o'sha zahoti ko'nglimga yana g'ul-g'ula tushdi: poezd kelib qolsachi?* (Ikki eshik orasi, 19.).

2. Dami ichiga tushmoq

Varianti: damini yutmoq, nafasini ichiga yutmoq, damini ichiga olmoq, nafasini ichiga olmoq.

Ma'nosi: bir so'z ham ayta olmay qolmoq, hech qanday tovush chiqarmaslik.

Misol: *Kelaveringlar, kelaveringlar, - dedim damim ichimga tushib* (Shaharlik kuyov, 403.).

3. Boshini qotirmoq

Varianti: boshi qotdi

Ma'nosi: miyasini charchatib yubormoq, bir ilojini topolmay qoliglik.

Misol: *Ammo Nilufar pishiq qiz: bijir – bijir qilib boshini qotirib tashlaydi, jinnivoy!* (Ikki eshik orasi, 10.).

4. Qulog'ini ding qilmoq

Ma'nosi: diqqat bilan tinglashga tayyor bo'lmoq

Misol: *Kechqurun qulog'imni ding qilib turgan edim, ko'chada qo'shni bolalar chaqirib qolishdi* (Dunyoning ishlari, 26.).

5. Jahli burn(i)ning uchida turmoq

Sinonimi: jahli tez

Ma'nosi: arzimagan narsadan ham tezda tutaqib achchiqlanmoq

Misol: - *Voy – bo', jahlingiz burningizning uchida turadi-ya!* (Ikki eshik orasi, 216.).

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p qo'llanadi.

Shuni ham aytish kerakki, hozirgi tilimizda "qolip"ga kirib qolgan iboralar ham qachondir nutq so'zlanib turgan paytda yuzaga kelgan; til taraqqiyoti jarayonida ko'p ishlanib, silliqlashib, takomillashib, bir butun holga kelib qolgan. Adabiyotimizda qayd etilayotganidek, frazeologiyaning muhim manbalaridan biri ham shundadir.

Frazeologizmlar kuchli obrazlikka, bo'yoqdorlikka ega bo'lib, ayrimlarida stilistik bo'yoqdorlik sust bo'lishi mumkin. Bunday holatda esa frazeologik variantlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Frazeologik variantlar asos frazeologizmlarning bir ko'rinishi bo'lib, ma'no, stilistik va sintaktik vazifalariga ko'ra, aynan o'xshash bo'ladi. Ularning leksik tarkibida qisman o'zgarish bo'lishi mumkin. Ular asosida aynan bir obraz yotadi. Frazeologizmlarning leksik variantlanishi uch xil usulda yuz beradi:

A) leksik almashinish;

B) leksik tanlash;

S) leksik qo'shish.

Frazeologizmlarning bunday variantlanishi natijasida ma'no qirralarida ma'lum o'zgarishlar bo'ladi. Bu o'zgarishlar ma'noning kuchayishi, bo'yoqdorlikning oshishini ta'minlaydi.

2.2. O‘.Hoshimov asarlarida qayta ishlangan frazeologizmlar

Yozuvchining individual uslubini o‘rganish birinchi navbatda uning so‘z tanlash, so‘z qo‘llash yo‘sinini o‘rganish demakdir. Yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati tilning keng ma‘nodagi sinonimik vositalari boyligidan qaysilarini saralashda, bu vositalarni nutq zanjirida qanday joylashtirishda namoyon bo‘ladi. Mashhur yozuvchi O‘.Hoshimov ham tildan ijodiy – individual foydalanishning ajoyib ustasi hisoblanadi. Yozuvchi o‘z asarlarida frazeologik birliklardan mavhum hodisalarni aniq qilib tasvirlashda, qahramonlarining ichki dunyosini, psixik holatini so‘z bilan ko‘rsatib berishda mohirlik bilan foydalanadi. Voqea – hodisalarni obrazli qilib tasvirlashda tilda mavjud imkoniyatlardan ustalik bilan foydalanib, yangi ta’sirchan frazeologizmlar ham yaratadi. Ayniqsa O‘.Hoshimov asarlaridagi frazeologik birliklar xalq og‘zaki so‘zlashuv tiliga hamohang holda tasvirlanganligini alohida ta’kidlashimiz darkor.

Frazeologizmlarning odatdagi umumtil qo‘llanishida uning shakli ham, mazmuni ham o‘zgarmaydi. Lekin yozuvchilar, umuman, ijod ahli frazeologik birliklarni qo‘llab, uni “yoshartiradilar”. Shu asosda iboraning uslubiy samaradorligini, ta’sirchanlik darajasini oshiradilar. Ana shunday hollarda frazeologik birliklarning uslubiy imkoniyatlari bir necha baravar ortadi.

So‘zlar singari frazeologizmlarning ham potensial imkoniyatlari matnda aniqlanadi, chunki iboralarning lug‘atlarda beriladigan barqaror tasnifi bilan ularning nutq tarkibidagi “jonli faoliyati” o‘rtasida mutlaq tenglik yo‘q. Ko‘p qo‘llanilayotgan frazeologizmlarda o‘z yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotayotganlariga “jon kiritish”, “yangilash” uchun yozuvchi va shoirlar unga muayyan matniy shart – sharoitlar yaratadilar. Natijada muayyan ibora matnda o‘z ma’no doirasini kengaytiradi, polisemantik iboraga aylanadi yoki frazeologik birlikning komponent tarkibida siljish, ma’nosida o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bunday hodisa frazeologizmlar transformatsiyasi deb yuritiladi²¹.

²¹ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: Филол.ф. доктр...дисс. – Тошкент, 1993.

An'anaviy frazeologizm bilan transformatsiyaga, o'zgarishga uchragan frazeologizmlarni bir – biridan farqlash lozim, chunki an'anaviy frazeologizm til hodisasi bo'lsa, o'zgarishga uchragan frazeologizmlar nutq hodisasidir, ularning ayrimlari asta – sekinlik bilan nutqiy, matniy hodisadan uzual, lisoniy hodisaga o'tishi mumkin. Bu esa tilning, jumladan, adabiy til frazeologik sistemasining taraqqiyot jarayonini o'zida ifoda etadi.

O'zbek tilshunosligida yaqin yillardan buyon frazeologizmlarga nisbatan "turg'un", "barqaror" hodisa sifatida emas, "erkin", "turg'un bo'lmagan" hodisa sifatida tadqiq va tahlil etishga katta e'tibor berila boshlandi.

Tildagi frazeologizmlarning taraqqiyoti va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo'lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo'ladi.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari "struktural o'zgarishlar", "formal o'zgarishlar", "frazeologik transpozitsiya", "leksik qayta shakllanish" kabi terminlar bilan atalgan. Bizningcha, frazemalar transformatsiyasi termini frazemalardagi o'zgarishlarni to'liq qamrab oladi.

Qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan birga, ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish maqsadida yozuvchilar frazemalardan keng foydalanadilar. Ayni paytda, ular frazemalarni qisman o'zgartirib qo'llaydilar yoki butunlay yangi individual-muallif frazemalarni ham yaratadilar. Kuzatishlarimiz o'zbek tilida frazemalar transformatsiyasining quyidagi shakllari mavjudligini ko'rsatdi:

A) Frazema tarkibidagi muayyan so'zlarni almashtirish usuli orqali:

Tilning rivojlanish bosqichida frazemalar tarkibidagi u yoki bu komponent faol ifoda qiluvchi yangi leksemalarga almashtirilishi mumkin. Masalan, "sallani ol desa, kallani olmoq" frazemasidagi "salla" komponenti qo'llanmasligi tufayli "do'ppi" leksemi bilan almashtirilgan, natijada "do'ppini ol desa, kallani olmoq" shaklidagi yangi frazema hosil bo'lgan. "Do'ppiga qo'shib faqat boshni emas, oyoq-qo'lni ham qiyma-qiyma qilib olib keladi" (T.Malik. "Davron"). Ushbu

gapda “sallani ol desa, kallani olmoq” iborasining ijodiy o‘zgartirilganini ko‘rish mumkin. “Salla” so‘zi o‘rniga “doppi” so‘zini qo‘llagan bo‘lsa, “kalla” so‘zi o‘rniga “bosh” so‘zini o‘zgartirib qo‘llaydi. Yozuvchi bu ibora orqali ayrim kishilarning boshliqlarga yoqish maqsadida berilgan ko‘rsatmani me‘yoridan oshirib bajarish holatini kinoya bilan ifodalaydi.

O‘.Hoshimov asarlarida ham avvaldan mavjud frazeologizmlarning tarkibidagi so‘zlarni almashtirish yo‘li bilan qayta ishlangan frazeologik birliklar uchraydi.

1. Quloqqa ilmoq

Ma‘nosi: yaxshilab eshitib, tushunib olmoq

Adabiy tildagi varianti: quloqqa quymoq

Misol: *Quloqlaringga ilib ollaring* (Tushda kechgan umrlar, 69.)

2. Bo‘yniga ilmoq

Ma‘nosi: qilmagan ishni majburlab tan oldirmoq

Varianti: bo‘yniga qo‘ymoq

Misol: *Bo‘lmasa, tergovchi “ho‘l ish”ni shilq etib bo‘yniga ilmoqchi edi* (Tushda kechgan umrlar, 59.).

3. Chiroqni o‘chirib qo‘ymoq

Varianti: chirog‘ini yoqib o‘tirmoq

Ma‘nosi: uy egasi olamdan o‘tgandan so‘ng, uning o‘rniga uyda bo‘lmoq, yashamoq, fayz kiritib turmoq

Misol: *Bir oydan beri shu yoqqa qatnayverib, cholimniyam chirog‘ini o‘chirib qo‘ydim* (Ikki eshik orasi, 173.).

Yozuvchi birinchi va ikkinchi gaplardagi “ilmoq” so‘zidan ustalik bilan foydalanib, yana bir frazeologizmni asar matniga qo‘shgan. “Ilmoq”, ma‘lumki, biror narsani biror narsaga osmoq, qo‘ymoq kabi ma‘nolarni beradi. “Qulog‘iga ilmoq” va “bo‘yniga ilmoq” frazeologizmlarida aynan shu ma‘nosiga tayanilgan. Xalqimizda uyda bir inson olamdan o‘tsa, o‘sha uyda yashovchi qolganlar uni eslab, duo qilib, kelgan – ketganlarni kutib olib o‘tiradi. Bu “chirog‘ini yoqib o‘tirmoq” frazemasi orqali beriladi. O‘.Hoshimov asardagi kampirning ahvolini

yorqinroq aks ettirish, ta'sirliroq ifodalab berish uchun, uyda kam bo'layotgan kampirning nutqida "cholimni chirog'ini o'chirib qo'ydim" degan frazeologik birlikni qo'llaydi.

B) Frazema tarkibiga muayyan so'zlarni qo'shish usuli orqali:

Umumtil frazemalari tarkibiga turli ekspressiv ottenkalar hosil qilish va ma'noni kuchaytirish uchun leksemalar qo'shib ishlatilishi bilan ham frazemalar o'zgaradi. Masalan: "Men behad ta'sirchan edim, atrofimdagi og'riqlarga ko'z yumib, o'z ko'nglimning chuldirashiga quloq tutmasdim, tutolmasdim" (U.Hamdam. "Muvozanat"). "Ko'nglimga quloq solmasdim"ga nisbatan "ko'nglimning chuldirashiga quloq tutmasdim" fikrni yorqinroq ifodalaydi va ko'proq ma'noni bildiradi. Yoki "Etti nomusimni erga bukding-ku" (G'.G'ulom. "Yodgor") gapida esa "Nomusimni yerga bukding" frazemasini o'zgartirib, ega qismiga "etti" so'zini qo'shish bilan yanada ta'sirchanlikka erishgan va shu bilan birga "yetti nomusimni yerga bukding-ku" frazemasini "nomusimni yerga bukding"ga nisbatan qanchalik sermazmun bo'lsa, mehribon onadagi iztirob ham shunchalik kuchliligini ifodalaydi²².

O'.Hoshimov asarlarida bu turkum doirasida o'zgarishga uchragan frazeologizmlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Misol: 1. *Dilya olib kelgan makaron sho'rvani ko'rib ko'ngli ag'darildi* (Tushda kechgan umrlar, 33.);

2. *Xuddi mo'jizaga duch kelgandek nuqul g'alati iljayadi. Og'zi lang ochilib qolgan* (Ikki karra ikki besh, 189.);

3. *Tutunga to'lib ketgan xonadan chiqib borar ekanman, xayolimni og'ir o'ylar chulg'agan, nochorlikning zildek yuki yelkamdan bosib, yerga mixlab tashlayotganga o'xshardi* (Tushda kechgan umrlar, 214.).

Yuqoridagi gaplardagi "ko'ngli ag'darildi" frazeologik birikmasi "ko'ngli aynidi"ga nisbatan kuchli emotsionallikni bermoqda, "og'zi lang ochilmoq" esa "og'zi ochilmoq"ga nisbatan, "nochorlikning zildek yuki" iborasi "nochorlik yuki"

²² Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: Филол.ф. доктр...дисс. – Тошкент, 1993.

frazeologizmlariga nisbatan ta'sirchanligi, aynan matndagi o'sha hodisani emotsional ifodalashigi ko'ra ajralib turadi.

V) Frazema tarkibidagi so'zlarning tushib qolish usuli orqali:

Ellipsis hodisasi frazemalarda ko'p uchraydigan tashqi formani takomillashtiruvchi vosita sanaladi. Masalan, "o'ylab, o'yiga etolmaslik" frazemasining "o'yiga etolmaslik" varianti ham ellipsis asosida yuzaga kelib, shakli o'zgaradi, xolos. Bu hodisa umumtil frazemasiga semantik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham ta'sir o'tkazmaydi: "Yusuf alamli o'ylarining tagiga yetolmasdi" (U.Hamdam. "Muvozanat"). Gapdan frazemaning tushib qolgan "o'ylab" qismi anglashilib turibdi. Frazemalarning hatto birikmadan iborat komponenti ham ellipsisga uchrashi mumkin. Masalan, yozuvchi umumtilidagi "yer yorilmadi, yerga kirib ketmadim" frazemasini shaklan o'zgartirib, "Uyatdan yerga kirib ketmaymanmi?" (T.Malik. "Falak") tarzida qo'llagan. Bunday holda frazemaning birinchi qismi transformatsiyaga uchragan va bunda yozuvchi qaysi frazemaga ishora etayotganini tashlangan komponentsiz ham anglab olish mumkin. Frazemalarning bu tarzidagi transformatsiyasida til elementlarining tushib qolishi ularning ma'nolariga putur etkazmaydi, balki stilistik mahsuldorlikka erishiladi.

G) So'z birikmalarini qo'shish usuli orqali:

Bunda qo'shilgan komponentlar matnning umumiy ma'nosini o'zgartirmaydi, aksincha, ifodaning ta'sirchan va e'tiborli, emotsional-ekspressiv bo'lishini ta'minlaydi: "Agar bo'lsami, o'tirganlar Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan, mug'ombirligiga, qari tulkiligiga bir ovozdan tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida chet elning saqichidek hech kimga bermay chaynab lazzatlangan bo'lardilar" (U.Hamdam. "Muvozanat"). Anglashilmoqdaki, "bir gapni hadeb chaynamoq" frazemasining tarkibi "chet elning saqichidek" so'z birikmasini frazemadan oldin qo'llash bilan kengaytiriladi. Qo'shilgan so'z birikmasi faqatgina frazemaning tarkibini kengaytiribgina qolmasdan, balki uning ifodaviy xususiyatini oshiradi, matnning umumiy ma'nosi kuchayadi, stilistik mahsuldorlik oshadi. Frazemalarning tarkibi va ma'nosi konstruksiyali o'xshatishlarni qo'shish bilan ham o'zgarishi mumkin. Masalan:

“Chorasiz so‘qir eru xotin, ayb ish qilib qo‘ygan boladek “miq” etmay o‘tirishar, Obida hayajonlanib titraganda, Olim uning oppoq qo‘lini asta siqib qo‘yar, “parvo qilmang” deya pichirlab, unga dalda berardi”. (N.Abbosxon. “Sho‘rqishloq”). Bunda “miq etmaslik” frazemasi “ayb ish qilib qo‘ygan boladek” o‘xshatishli konstruksiyasi bilan kengaytirilgan. Umumtildagi “miq etmaslik” iborasi hech narsa demay, jim o‘tirish ma’nosini bildiradi. Yozuvchi bu ibora oldidan “ayb ish qilib qo‘ygan boladek” birikmasini keltirish bilan asar qahramonlarining jim o‘tirishi bilan birga o‘sha paytdagi o‘zlarini aybdordek his qilishayotgani va bu vaziyatdagi qo‘rquvlarini tasvirlab beradi.

D) Kontaminatsiya hodisasi orqali:

Bu hodisa ham frazeologizmlarning o‘zgarishida va shu asosda yangi frazeologizmlarning shakllanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. G.A.Selivanov “frazeologik kontaminatsiya sekin shakllanadigan jarayon bo‘lishiga qaramay, tilning frazeologik tarkibi boyishida mahsuldor usullardan biridir”, deb ta’kidlaydi²³. Kontaminatsiyaga ko‘ra, ikkita yaqin ma’noli, ammo turli leksik tarkibli frazeologizmlar yoki ularning qismlarini birlashtirish asosida yangi frazeologizmlar shakllanadi. Bunda ikki frazeologizmning qo‘shilishi oqibatida frazeologizmlarning ichki shakli buziladi va yangi ichki shakl yuzaga keladi. Bu asosda shakllangan frazeologizm yangi ma’noli frazeologizm bo‘lmaydi, balki frazeologizmning ma’no ottenkasi kuchayadi, emotsional-ekspressivligi oshadi, stilistik imkoniyatlari kengayadi. Masalan: O‘z uyiga sig‘may qolganini anglagan Obida ko‘ngli cho‘kib, tilini tishladi (N.Abbosxon. “Sho‘rqishloq”). Bu yerda “ko‘ngli cho‘kmoq” va “tilini tishlamoq” iboralari birlashib kelgan.

Kontaminatsiya hodisasida ikkita frazemaning tarkibi buzilmay, bir-biriga birlashtirib qo‘llash hollari ham uchraydi. Bunda frazemalar bir-birining ma’nosini to‘ldirib keladi: “U haliyam xohlasi, eski rahbar do‘stlari va tajribasiga tayanib, tumanning “manaman” degan “xo‘rozlariga basma-bas kelishi va ko‘p hollarda

²³ Селиванов Г.А. Фраzeологическая контаминация как один из показателей структурного развития русского языка // Вопросы семантики фразеологических единиц. Часть 1. Новгород, 1971. С. 233-234.

ularning bo‘ynini qayirib tashlashi hech kimga, jumladan anavi popugi pasayib, suvga tushgan mushukdek shumshayib o‘tirgan A‘zamjon akaga sir emasdi” (U.Hamdam. “Muvozanat”). Gapda “popugi pasaydi” va “suvga tushgan mushukdek” iboralari birga qo‘llanilgan.

Frazemalar kontaminatsiyasida ba‘zan ma‘nodosh bo‘lmagan ikki frazema komponentlarining birlashuvi ham uchrashi mumkin: “Men seni kim ko‘rganga maqtab, orqangdan ko‘rpacha soldirib yurgan bo‘lsam! (G‘.G‘ulom. “Yodgor”) gapida frazemalarni ijodiy o‘zgartirib qo‘llaydi. “Kim ko‘rganga” degan ibora “qaerda kimni ko‘rsam o‘shanga” degan ma‘noni bildiradi. “Orqangdan ko‘rpacha soldirib yurgan bo‘lsam” degani, “soyasiga ko‘rpacha solmoq” iborasining o‘zgargan shaklidir.

Frazemik kontaminatsiya frazemalarni leksik o‘zgartirishning bir yo‘li, shuningdek, yozuvchi tili frazemalarining ham boyishi va rivojlanishi, turli grammatik o‘zgarishlarga uchrab, har xil frazemalar yasallishining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Ta‘kidlaganimizdek, yozuvchilar tilning qonun-qoidalari asosida individual-muallif frazeologizmlarini yaratadilar. Okkazional frazeologizmlar individual-muallif frazeologizmlaridir. Masalan: “Nihoyat, juma namozidan so‘ng bir jonliq so‘yib, xayri-xudoyi qilishni, shanba bomdoddan so‘ng, ya‘ni tuprok uyg‘onmay yo‘lga chiqishni rejalashdi” (T.Malik. “Falak”). Bu o‘rindagi “tuproq uyg‘onmay” frazemasini umumtildagi “xo‘roz qichqirmay” frazemasiga yaqin ma‘noli yangi individual-muallif frazeologizmidir. Yozuvchi ushbu gapda hali xech kim tuproqqa qadam qo‘ymasdan, ya‘ni tuproqni uyg‘otmasdan azonlab yo‘lga chiqishni ta‘kidlaydi. Xuddi shuningdek, hali quyosh chiqmay turib ma‘nosini beruvchi “kun oyoqlamay turib” frazemasini ham individual-muallif frazemasidir. Baxtiga kun oyoqlamay turib, uyiga Salimxo‘janing o‘zi kirib keldi” (T.Malik. “Devona”).

O‘.Hoshimov asarlarida yuqoridagi hodisalar yuzasidan muhim namunalar to‘pladik. Ularning ko‘pchiligi frazeologizmlar tarkibida o‘zgarishlar bo‘lgani tufayli, ba‘zilari kontaminatsiya hodisasida vujudga kelgan.

1. *Erkak kishi begona ayolning ko'nglini ovlayotganida o'zining yaqin odamlari xayolidan ktariladimi yo'qmi, unisini bilmayman-u, lekin ayol kishi begona odam bilan... (qanday sharmandalik)! (Ikki eshik orasi, 220.)*

2. *"Otangning yo'lidan borsang, oq sutumni ko'kka sovuraman", deydi ona astoydil (Tushda kechgan umrlar, 8.)*

3. *Bugun ilk bor o'lim sharpasini sezdim (Tushda kechgan umrlar, 102.)*

4. *Ana endi o'zingga kelding, Qo'shavoy, aqling toshni yoradi, derdi (Ikki karra ikki-besh, 179.).*

Frazeologik ibora zamiridagi obrazni konkretlashtirish ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. O'.Hoshimov asarlaridagi ayrim frazeologik neologizmlarning tashkil topishida har xil badiiy – estetik vositalar katta rol o'ynagan.

Frazeologik iboralardan ijobiy individual foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biri ibora asosida kontekst yaratish usulidir. Bunday qo'llashda frazeologik ibora nutqda yaxlit til birligi sifatida ishtirok etmaydi. Yozuvchi iboraning umumiy mazmuni yoki uning zamiridagi obrazdan foydalanadi, mana shu mazmun, obraz yoki uning modeli yangi kontekst uchun asos qilib olinadi.

1. – *Seniyam oyog'ingni to'rtta qilib qo'yaylik mundoq, nima balo yo mijozing sustmi? (Ikki eshik orasi, 241.)*

2. *Kaltak egan xo'kiz yotog'on bo'ladi, degandek, ba'zilar qaysarlik qila boshladi (Ikki eshik orasi, 62.)*

3. *Rustamjon qachon keladilar, qachon dadalarini olib ketadilar, deb quchog'ini ochib turibdi (Tushda kechgan umrlar, 212.)*

4. *Ammo mashina allaqachon jaxannam labiga borib etgan edi (Bahor qaytmaydi, 575.)*

O'.Hoshimov asarlaridan olingan yuqoridagi gaplarda frazeologizmlar o'z o'rnida ustalik bilan o'ylab topilgan. Yozuvchi o'quvchiga notanish yoki tushunarsiz frazeologizmlardan foydalanmagan. Adib xalqchil, barcha uchun tushunarli bo'lgan so'z birikmalaridan turg'un iboralarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan frazeologizmlarning asosiy qismi badiiy

nutqda ma'lum uslubiy maqsad – ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Ularda bunday xususiyat kuchli va rang-barangdir. Gaplardagi “oyog‘ini to‘rtta qilmoq - uylantirmoq”, “kaltak egan xo‘kiz yotog‘on bo‘lishi – qaysar tabiatlikni”, “quchog‘ini ochib turmoq – matnda kinoya ma’nosida kutmoq”, “jahannam labi – ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘lib, jar yoqasiga borib qolganini, mashinaning halokatga uchrashi muqarrarligi” kabi ma’nolar ta’sirli ifodalab berilgan.

1. *Mujiklar “tomoqni xo‘llab olishga” ulgurishgan shekilli, qiyqiriq kulgu eshitildi* (Tushda kechgan umrlar, 67.)

2. *Onamga “notovon ko‘ngilga qo‘tir jomoshov” degandek miyig‘ida kulib qo‘ydi* (Dunyoning ishlari, 142.)

3. *Loy qozonga oltin bo‘lmay bo‘yginang lahatda chirigur!* (Dunyoning ishlari, 142.)

4. *SHaxnoza ko‘z o‘ngimda so‘lib borayapti* (Tushda kechgan umrlar, 237.)

5. – *Salom, Klavdiya Sergeevna! – dedi qaddini g‘oz tutishga urinib* (Tushda kechgan umrlar, 76.)

O‘.Hoshimov asarlari tilidagi frazeologizmlar xalq og‘zaki so‘zlashuv tiliga hamohang holda tasvirlanganligini alohida qayd etishimiz lozim. Yuqorida berilgan misollardagi “tomoqni xo‘llab olish”, “notovon ko‘ngilga qo‘tir jomoshov”, “loy qozonga oltin bo‘lmoq”, “bo‘yginang lahatda chirigur”, “so‘lib bormoq”, “qaddini g‘oz tutmoq” kabi frazeologizmlarning xususiyati xalq iboralari va ularning adabiy til variantlaridan foydalanilgan holda tuzilgan va asar kontekstiga mos ravishda qo‘llanilgan. Bunda yozuvchi ko‘zlangan o‘z maqsadiga erishgan deb o‘ylayman.

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va shakllanish imkoniyatlari keng bo‘lib, ular mohir san’atkor qo‘lida har gal yangi emotsional bo‘yoq kasb etadi, o‘z ta’sir kuchini yanada orttiradi. So‘z ustalari frazeologizmlardan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun ularning ma’nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar. Ular tilimizdagi frazeologizmlardan foydalanibgina qolmay, shular asosida yangi frazeologizmlarni ham yaratadilar. Bu jarayon umumtildagi iboralarning leksik tarkibi o‘zgartirilishi,

ularning ma'no va stilistik vazifalarini oshirish uchun turli til qonun-qoidalaridan foydalanish, ya'ni umumtil strukturasini til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur struktura hosil qilishi mumkin. Bu tilimizning yanada jozibador, ma'noli va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tilning frazeologik tarkibi boyib boradi.

Bob bo'yicha xulosa.

O'zbek tili frazeologizmlarini so'z san'atkorlari tili va uslubi doirasida o'rganish salmoqli natijalarga olib keldi.

Yozuvchining individual uslubini o'rganish birinchi navbatda uning so'z tanlash, so'z qo'llash yo'sinini o'rganish demakdir.

Frazeologik neologizmlar quyidagi usullar orqali yasaladi:

A) Frazema tarkibidagi muayyan so'zlarni almashtirish usuli orqali:

B) Frazema tarkibiga muayyan so'zlarni qo'shish usuli orqali:

V) Frazema tarkibidagi so'zlarning tushib qolish usuli orqali:

G) So'z birikmalarini qo'shish usuli orqali:

D) Kontaminatsiya hodisasi orqali:

Yozuvchi tomonidan qo'llanilgan frazeologizmlarning asosiy qismi badiiy nutqda ma'lum uslubiy maqsad – ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Ularda bunday xususiyat kuchli va rang-barangdir. Gaplardagi “oyog'ini to'rtta qilmoq - uylantirmoq”, “kaltak egan xo'kiz yotog'on bo'lishi – qaysar tabiatlikni”, “quchog'ini ochib turmoq – matnda kinoya ma'nosida kutmoq”, “jahannam labi – ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lib, jar yoqasiga borib qolganini, mashinaning halokatga uchrashi muqarrarligi” kabi ma'nolar ta'sirli ifodalab berilgan.

Uchinchi bob

O‘.Hoshimov asarlarida frazeologizmlarning tuzilishiga ko‘ra turlari

3.1. O‘.Hoshimov asarlaridagi frazeologizmlarning birikmaga tengligi

Frazeologizmlarda hozirgi o‘zbek tilidagi sintaktik bog‘lanishlarning barcha turlari o‘z aksini topgan. So‘z birikmasiga teng, shuningdek, gapga teng qurilishli frazeologik birliklar, o‘z navbatida, xilma – xil ko‘rinishlarga ega. Mazkur birliklar ayni paytda ham birikmaga teng, ham gapga teng shaklda bo‘la oladi.

Frazeologizmlarni qayta tuzish bilan ham bir frazema birikmaga va gapga teng shakllarga kiradi. Masalan, *Kapalagi uchib ketdi!* (O‘.H. Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 29.) frazeologik birligi gap shaklida qo‘llanilgan. *YUragim qinidan chiqib ketayotganga o‘xshar, jon holatda uyim tomon yugurar edim* (O‘.H. Tushda kechgan umrlar, 189.). Mazkur gapdagi frazeologizmni birikmaga teng deb olishimiz maqsadga muvofiq. Chunki ega va predikat munosabatiga ko‘ra shakllantirilmagan.

Birikma deganda, odatda ikki mustaqil leksemaning o‘zaro grammatik hamda semantik munosabatga kirishuvi asosida tuziladigan sintaktik birlik tushuniladi. Frazeologizm qismlarida tartik erkin bog‘lanmalardagi tartibdan farq qilmaydi. Ba’zi istisnolar poetik nutq yoki so‘zlashuv nutqi sintaksisi hisobiga (sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga; sindi belim kabi), tojik tili hisobiga (usta buzarmon) kelib chiqadi.

Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so‘z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma’nodir. Frazeologik ma’no o‘ta murakkab tabiatli, leksemada bo‘lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo‘lsa, boshqalari grammatik ma’noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so‘z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko‘rpaga o‘t qo‘ymoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq; ko‘ngli bo‘sh; hash-pash deguncha) denotativ ma’noga ega

bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq" bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi "kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq" sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos", "bo'yoqdor" semalariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [hayron bo'lmoq] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. Shuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli "bo'yoqlar" bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir).

Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [qo'yniga qo'l solmoq] frazeologizmining ma'nosi [qo'yin], [qo'l], [solmoq] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Lekin frazeologizmning yaxlit ma'nosi uning tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisidan kelib chiqmaydi. Frazeologizmlarning mazmuni sifatida uni tashkil qiladigan so'zlar ustiga qurilgan yangi bir ma'no tushuniladi.

Frazeologizm tarkibida qatnashgan soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish oʻz kuchini saqlaydi, lekin faqat ichki boʻladi. Masalan, *koʻngli ogʻridi* frazeologizmi ichki sintaktik qurilishi jihatidan gapga teng boʻlsa, uning varianti *koʻnglini ogʻritmoq* frazeologizmi soʻz birikmasiga tengdir. Bunday grammatik oʻzgarishlar frazeologizmning faqat ifodalanishida roʻy berib, uning mazmuniga taʼsir qilmaydi.

Yuqoridagi nazariy fikrlarga tayangan holda Oʻ.Hoshimov asarlarida qoʻllanilgan frazeologik birliklarni soʻz birikmasiga va gapga teng holatlarni izchil ajratishga harakat qildik. Asarlardagi “qovogʻimdan qor yogʻayotganini”, “gʻazabdan chaqnagan koʻzlari”, “rangi oʻchib ketganini”, “es hushini yigʻib olguncha”, “chiqqan qiz chigʻiriqdan tashqari”, “iymanib turganini”, “qon qilib yuboradigan”, “ensasi qotib” va boshqa shu shaklda qoʻllanilgan frazeologimzlarni soʻz birikmasi shaklidagi frazeologik birliklar deb qabul qildik. Chunki, mazkur birliklar gapda baʼzi oʻrinlarda toʻligʻicha toʻldiruvchi, baʼzilarida ega, baʼzilarida esa hol vazifasini bajarmoqda. Misollar:

1. *Noiloj mashinani tislantirib olib keldim, qovogʻimdan qor yogʻayotganini oʻzim ham sezib turar edim* (Dunyoning ishlari, 25.)

2. *U olqishlar ostida sahna chetiga chiqishi bilan Zufar Xodjievichning gʻazabdan chaqnagan koʻzlariga toʻqnash keldi* (Bahor qaytmaydi, 506.)

3. *Hammasining rangi oʻqib ketganini, choʻnqayib oʻtirganlar dam-badam peshonasidan oqayotgan terni bilagi bilan sidirib tashlayotganini keyin payqadim* (Tushda kechgan umrlar, 111.)

4. *Es-hushimni yigʻib olguncha taksi chang koʻtarib, darvozamiz tomon eldi* (Tushda kechgan umrlar, 188.)

5. *Chiqqan qiz chigʻiriqdan tashqari, deydilar* (Bahor qaytmaydi, 536.)

6. *Odamni qon qilib yuboradigan kuz yomgʻiri boshlandi* (Tushda kechgan umrlar, 32.)

7. – *Ey boboy! – dedi Grisha ensasi qotib* (Tushda kechgan umrlar, 58.)

Adibning asarlaridan “toʻrt muchasi sogʻ”, “uvvos tortganiniyam”, “dard ustiga chipqon”, “boshidan bir tola soch toʻkilmoq”, “koʻziga choʻp solgan”,

“qovog‘ini solgancha”, “o‘zini tomdan tashlaydigan”, “og‘zidan bol tomib”, “qoshini chimirib”, “qovoq uyib”, “boshi berk ko‘chaning” kabi shakldagi frazeologik birliklarni ham so‘z birikmasiga teng bo‘limimizda yoritishga qaror qildik. Chunki mazkur birliklar gaplarda ega kesimlik vazifasni bajarmasdan ikkinchi darajali birliklar funksiyasida qo‘llanilgan.

1. *Mabodo tog‘am urushdan to‘rt muchasi sog‘ qaytganida ham turmushi turmush bo‘ladimi endi* (Ikki eshik orasi, 256.)

2. *Potma-Zo‘ra kelinlar ertalab turib, uvvos tortganiniyam eshitmaydi* (Ikki eshik orasi, 175.)

3. *Dard ustiga chipqon degandek, Kimsandan na xat bor, na xabar* (Ikki eshik orasi, 175.)

4. *Lekin Zo‘raning boshidan bir tola soch to‘kilsayam, seni so‘yaman! Uqdingmi!?* (Ikki eshik orasi, 194.)

5. *Hamma menga qo‘lini bigiz qilib, mana erining ko‘ziga cho‘p solgan buzuq mana shu! Deydigandek!* (Ikki eshik orasi, 229.)

6. *Sayfi Soqievich qovog‘ini solgancha SHerzodga qarab qo‘ydi-da, indamay bosh silkidi* (Nur borki, Soya bor, 13.)

7. *Ayniqsa, majlis desa o‘zini tomdan tashlaydigan muharrir o‘rinbosari qattiq urushdi* (Nur borki, Soya bor, 7.)

8. *Bog‘bon amaki og‘zidan bol tomib yangangizni maqtay ketdi* (Shaharlik kuyov, 400.)

9. *G‘amgin qovoq uyib turgan baland-baland qoyalar yarq etib yorishdi, yana zulmat cho‘kdi* (Bahor qaytmaydi, 568.)

10. *Mana shu boshi berk ko‘chaning eng ichkarisida ojizgina nur yiltillab turar, ingichka ip bo‘lib, kelajakka bog‘lanayotgandek edi...* (Bahor qaytmaydi, 560.)

Yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan frazeologizmlar o‘zining takrorlanmas va badiiy asar mohiyatini to‘liq ochib berishi bilan alohida ahamiyatga ega.

3.2. O‘.Hoshimov asarlarida qo‘llangan gapga teng frazeologizmlar

Frazeologizmning gapga tenglikdan birikmaga tenglikka yoki aksincha aylanishi ularning ma’lum qismigagina xoslangan bo‘lib, qolgan frazeologizmlar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon bo‘ladi.

Tarkibida ayrim so‘zshakl bilan ifodalangan ega bo‘lagi bo‘lsa, shunday frazeologizm qurilishiga ko‘ra gapga teng hisoblanadi.

Misol: 1. *So‘taksan, hali qo‘g‘irchoqsan! Payti kelib ko‘zing moshdek ochiladi* (O‘.H. Bahor qaytmaydi, 558.).

2. *Xuddi mo‘jizaga duch kelgandek nuqul g‘alati iljayadi. Og‘zi lang ochilib qolgan* (O‘.H. Ikki karra ikki besh, 189.).

O‘z ichida ergash gapli “erning tagida ilon qimirlasa bilmoq” kabi frazemalarni birikmaga teng qurilishli birliklar qatoriga kiritish to‘g‘ri. Chunki qo‘shma gap ko‘rinishli bunday frazeologik birlikning bir butun holda olingandagi grammatik mohiyati uning ikkinchi “bilmoq” qismiga ko‘ra belgilanadi.

Frazeologizmlar orasida qo‘shma gapga teng qurilishli birliklar ham uchraydi: “begim deguncha, belim sinadi”; ergash gap ko‘rinishli qismlardan tuzilgan frazeologizmlar ham bor: “ana mana deguncha, kampir shaftoli eguncha” kabi.

Ilmiy tadqiqotlarda gapga teng frazeologizmlar “sodda gap qolipli” nomi ostida Q.Hakimov tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

Olimning izlanishlari natijasida gapga teng frazeologizmlar yuzasidan quyidagicha xulosalarga kelingan:

1. Sodda gap qolipli frazeologizmlar, albatta ega va kesimdan tarkib topib, ba’zan unda boshqa biror ikkinchi darajali bo‘lak ham kuzatiladi. U kesim uzviga qarab, yo fe‘l frazeologizmi, yo ot frazeologizm bo‘ladi, gapda ma’no jihatdan bir butun holda predikat vazifasida keladi.

Misol: 1. *Safar aka qovog‘ini uyib menga imo qildi* (Ikki eshik orasi, 7.).

2. *Niyatingiz yaxshi-ku, holva degan bilan og‘iz chuchimaydi-da, o‘rtoq xo‘jayip* (Ikki eshik orasi, 60.).

2. Gap tarkibida sodda gap qolipli frazeologizmning bo‘lishi uning tarkibida mazmuniy qayta bulinishga olib keladi. U gapning qolgan bo‘laklaridagi ma’no va sintaktik nomutanosiblikning yuzaga kelishi uchun ham sabab bo‘ladi.

Misol: 1. *U Qilich Valievni otgani o‘q topolmas, ammo dami ichida edi* (Nur borki, Soya bor, 45.).

2. *Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol!* (Ikki eshik orasi, 237.).

3. Sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanliklari agents, ob‘ekt hamda sabab birikuvchanliklaridir. Obyekt hamda birikuvchanligi frazeologizm o‘timli fe‘l semantikasiga ega bo‘lganda, sabab birikuvchanligi frazeologizm natija semantikali bo‘lgandagina zaruriy hisoblanadi.

Misol: 1. *...Onam ota – onalar majlisiga kulib ketadi-yu, qovoq tumshug‘i osilib qaytadi* (Ikki karra ikki – besh, 186.).

2. *“Sen-chi?” – Sherzodning xayoliga shu bema’ni o‘y keldi-yu, birdan ko‘ngliga g‘ashlik cho‘kdi* (Nur borki, Soya bor, 39.).

4. Sodda gap qolipli frazeologizmning agents birikuvchanligi yo qaratqichli aniqlovchi, yo vositali to‘ldiruvchi, yo vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida yuzaga chiqadi. U qaratqichli aniqlovchi vazifasida yuzaga chiqsa, frazeologizmning ega uzvi egalik ko‘rsatkichisiz kelib qaralmishlik vazifasini o‘taydi. Agar, agents to‘ldiruvchi vazifasida yuzaga chiqsa, frazeologizmning ega uzvi egalik ko‘rsatkichisiz keladi. Uning kesim uzvi o‘timsiz fe‘l bo‘lsa, agents yuzaga chiqqan to‘ldiruvchi vositali, o‘timli bo‘lsa, agents yuzaga chiqqan to‘ldiruvchi vositasiz bo‘ladi.

Misol: 1. *Xah onamni so‘kkan tillaring tanglayingga yopishgur!* (Dunyoning ishlari, 46.).

2. – *A? ... Voy ko‘nglingning ko‘chasidan o‘rgilay!* (Dunyoning ishlari, 37.).

5. Sodda gap qolipli frazeologizmning ob‘ekt birikuvchanligi vositasiz to‘ldiruvchi, yo vositali to‘ldiruvchi, ba‘zan esa qaratqichli aniqlovchi vazifasida yuzaga chiqadi. Obyekt vositasiz to‘ldiruvchi vazifasida yuzaga chiqqanda sodda

gap qolipli frazeologizmning o'zi ham, uning kesim vazifasidagi uzvi ham o'timli ma'noga ega bo'ladi. U vositali to'ldiruvchi vazifasida yuzaga chiqqanda frazeologizm o'timli fe'l ma'nosiga ega bo'lsa-da, uning kesim uzvi bo'lgan fe'l o'timisiz ma'noda bo'ladi. Obyekt qaratqichli aniqlovchi vazifasida yuzaga chiqqanda, frazeologizmning ega uzvi egalik ko'rsatkichidagi ot bo'lib, kesim uzvi majhul nisbatdagi kauzativ fe'l bo'ladi.

Misol: 1. *Rustam hushini yig'ib oldi chog'i, qo'lini bo'shatdi* (Tushda kechgan umrlar, 39.).

2. *Dunyoning ishlarini qarangki, o'sha kuniyoq oqsoqol oyoqqa turib ketdi* (Ikki eshik orasi, 175.).

6. Sodda gap qolipli frazeologizmning sabab birikuvchanligi sabab holi vazifasida, sabab ergash gapda, natija ergash gapli qo'shma gapning bosh gapida, bog'langan qo'shma gaplarning birinchi uzvida hamda kuchirma gaplarning ko'chirma uzvida yuzaga chiqishi kuzatiladi. Sodda gap qolipli frazeologizmlarning sabab birikuvchanligi qo'shma gaplarda yuzaga chiqar ekan, bu qo'shma gapning tuzilish xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Misol: 1. *Kelinning dugonasiga tantanavor alpozda so'z berayotgan to'yboshining dami ichiga tushib ketdi* (Tushda kechgan umrlar, 37.).

2. *Talabalarining paxta hasharidagi romantik sarguzashtlarini ko'p o'qigan, televizorda muntazam ko'rsatiladigan manzaralar ko'z o'ngida namoyon bo'lar, tezroq dalaga borgisi, paxta tergisi kelardi* (Tushda kechgan umrlar, 29.).

7. Sodda gap qolipli frazeologizmning predikat vazifasida kelishi agentsning ega bilan, ob'ektning vositasiz tuldiruvchi bilan, sabab aktantining sabab holi bilan deyarli nomutanosibligini yuzaga keltiradi. Bunday gaplar tarkibida ma'noviy qayta bo'linish yuzaga kelganligi shunga sabab bo'ladi.

8. Sodda gap qolipli frazeologizmning gapda predikat vazifasida kelishi agentsning qaratqichli aniqlovchi, vositasiz yoki vositali to'ldiruvchi vazifasida; ob'ektning vositali to'ldiruvchi yoki qaratqichli aniqlovchi vazifasida; sabab aktantining sabab, payt, shart ergash gaplari yoki natija ergash gapli qo'shma

gaplarning bosh gapi, ko'chirma gapning ko'chirma uzvi yoki bog'langan qo'shma gapning birinchi uzvi vazifasida kelishini yuzaga chiqaradi.

9. Sodda gap qolipli frazeologizm gap predikati vazifasida kelganda, u uyushgan kesimlarning biri bo'lgani holda, agensi ega bilan; frazeologizm ma'nosi o'timli bo'lgani holda kesimi ham o'timli fe'ldan iborat bo'lsa ob'ekt bilan vositasiz to'ldiruvchi; sabab aktanti frazeologizmdan iborat gap tarkibiga kirsas, sabab xoli bilan mutanosiblikni saqlaydi.

10. Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma'no hodisasidir. Uning tarkibidagi bo'laklar o'rtasida shakllangan sintaktik munosabat o'z qimmatini saqlagan, o'zgarishga uchramagan holatda qoladi. Bu jihatdan sodda gap qolipli frazeologizmlar garchi ma'no jihatdan til birligi holiga kelib qolgan bo'lsa ham, sintaktik jihatdan sodda gaplik qiymatini saqlaydi. U nutq tarkibida gap sifatida olinib boshqa bo'laklar unga moslashtiriladi va uning biror bo'lagiga bog'lab qo'llanadi²⁴.

O'.Hoshimov qalamiga mansub asarlarda sodda gap qolipli, ya'ni gapga teng shakldagi frazeologizmlar miqdor jihatidan ko'pchilikni tashkil qiladi. Misollar:

1. *Dimog'imga rayhon xidi urilib, yuragim qalqib ketdi* (Tushda kechgan umrlar, 188.)

2. *Motor tovushi gurillab quloqni qomatga keltirdi* (Tushda kechgan umrlar, 194.)

3. *Do'xtir javob qilib ulgurmasdan shitob bilan chiqib ketdi* (Tushda kechgan umrlar, 34.)

4. *Opasini chaqirib berguncha odamni qon qilib yubordi* (Tushda kechgan umrlar, 92.)

5. *Tog' bag'rida qanchadan qancha sirlarni yashirishga o'rganib qolgan oqsoqol cho'qqilar ko'klarni bekor o'tib xazon bo'lgan bolasining qismatiga achinib boshini quyi soldi* (Bahor qaytmaydi, 575.)

²⁴ Ҳакимов Қ. Ўзбек тилидаги содда гап қолипли фразеологизмларнинг зарурий бирикувчанликлари: Филол.ф.номз...дисс. – Тошкент, 1993.

6. – *Men senga o‘ynab o‘tiran dedimmi?! – Safar aka qo‘lini paxsa qildi.* (Ikki eshik orasi, 7.)

Badiiy matnlardan olingan mazkur misollardagi frazeologik birliklar gapga teng shaklda o‘z ifodasini topgan. Mazkur frazeologizmlar Q.Hakimov tomonidan berilgan xulosalarga mos ravishda sodda gap qolipli hamdir. Chunki, frazeologizmlar ba’zi o‘rinlarda ot + ot, ot + fe’l tarzida, ba’zi o‘rinlarda esa ot + ikkinchi darajali bo‘laklar + fe’l ko‘rinishida ifodalangan. Gaplarda qo‘llanilgan frazeologizmlar ega va predikat munosabatiga kirishib, butun bir gapni hosil qilgan.

1. *O‘lsam go‘rimda tik turaman!* (Tushda kechgan umrlar, 49.)

2. *Onang sho‘rlik ikkalamizning dardimizda adoyi tamom bo‘ldi-ku!* (Tushda kechgan umrlar, 49.)

3. *Kapalagi uchib ketdi!* (Daftar hoshiyasidagi bitiklar, 29.)

4. *Hakim tergovchining o‘g‘li o‘zi bilan tengdosh To‘lagan ko‘zini olaytirib turibdi* (Tushda kechgan umrlar, 51.)

5. *Uy masalasida anavi sprapkani olguncha ham jonimdan to‘ydirdi* (Tushda kechgan umrlar, 272.)

6. *Alimardon ular to‘yga aytib kelishganini tushundi-yu, ataylab o‘zini go‘llikka soldi* (Bahor qaytmaydi, 495.).

Adib asarlarida frazeologizmlar xoh adabiy tildan olingan, xoh qayta tuzilgan bo‘lmasin, har ikki holatda ham so‘z birikmasiga va gapga teng shakllarda badiiy asar qimmatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bob bo‘yicha xulosa.

Adibning asarlaridan “to‘rt muchasi sog‘”, “uvvos tortganiniyam”, “dard ustiga chipqon”, “boshidan bir tola soch to‘kilmoq”, “ko‘ziga cho‘p solgan”, “qovog‘ini solgancha”, “o‘zini tomdan tashlaydigan”, “og‘zidan bol tomib”, “qoshini chimirib”, “qovoq uyib”, “boshi berk ko‘chaning” kabi shakldagi frazeologik birliklarni ham so‘z birikmasiga teng bo‘limimizda yoritishga qaror qildik. Chunki mazkur birliklar gaplarda ega kesimlik vazifasni bajarmasdan ikkinchi darajali birliklar funksiyasida qo‘llanilgan.

Sodda gap qolipli frazeologizmlar, albatta ega va kesimdan tarkib topib, ba'zan unda boshqa biror ikkinchi darajali bo'lak ham kuzatiladi. U kesim uzviga qarab, yo fe'l frazeologizmi, yo ot frazeologizm bo'ladi, gapda ma'no jihatdan bir butun holda predikat vazifasida keladi.

XULOSA

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, uning hamma sohalarda mustaqilligining ta‘minlanishi bilan o‘zbek tiliga qiziqqan barcha kishilarning tilning ichki tomoni – fonetik, leksik, frazeologik, grammatik xususiyatlarini o‘rganish bilan birgalikda, uning amaliy tomoni, til birliklaridan qanday foydalanish masalasini o‘rganish ham muhim ahamiyatga egaligi o‘z isbotini ko‘rsatmoqda. Yurtboshimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ham tildan amaliy foydalanish ko‘lamini oshirishga alohida e’tibor berish lozimligi muhim bir vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

Tilda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan ekspressiv munosabatini ifoda etuvchi bir talay vositalar mavjud. Frazeologizmlar nominativ va qo‘shimcha (kesatish, jirkanish, nafrat, so‘kish, qarg‘ish singari salbiy; erkalash, hazil, rag‘batlantirish kabi ijobiy) ma’no – munosabat aks ettiruvchi nutqiy birliklardir.

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi.

Frazeologik iboralar zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik frazeologizmlarning uslubiy imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi.

Faol qo‘llaniladigan frazeologizmlarni qaysi so‘z turkumiga tegishli tayanch birliklar bilan ifodalanishiga qarab, quyidagi tasnifini berish mumkin:

1. Tayanch komponenta ot bilan shakllangan frazeologizmlar.
2. Tayanch komponenti fe‘l bilan shakllangan frazeologizmlar.
3. Tayanch komponenti ravish bilan shakllangan frazeologizmlar.
4. Turli kategoriyadagi so‘zlardan shakllangan frazeologizmlar.

Frazeologik birliklar lisoniy birlik sifatida miyaning til xotirasi qismida mavjud ramzga teng bo‘ladi. Frazeologizmlardan foydalanishda ana shu ramzdan nusxa olinadi. Frazeologizmlar o‘z tuzilishiga ko‘ra birikma yoki gapga teng bo‘ladi.

Adabiyotning soʻz sanʼati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri soʻz, umuman, tildir. Adabiy asarning abadiy asar darajasiga koʻtarila bilishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balogʻatiga bogʻliq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining oʻziga xosligi tahlil etilmogʻi lozim.

Badiiy asar tilining rang-barangligi va puxtaligi badiiy asarda til va stilistik vositalaridan yozuvchining qanday foydalanganligiga bogʻliq.

Frazeologik birliklar eng koʻp badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy – ommabop matnlarda qoʻllaniladi. Badiiy matnlarda frazeologizmlarning tutgan oʻrni muhim ahamiyatga egadir. Oʻzbek tili frazeologizmlarini soʻz sanʼatkorlari tili va uslubi doirasida oʻrganish salmoqli natijalarga olib keldi. Bu narsa mumtoz adabiyot, hozirgi adabiyot, gazeta tili va folklor asarlari matnlari asosida amalga oshirilmoqda. Frazeologizmlar haqidagi ishlarda olgʻa surilgan nazariy va amaliy fikrlar oʻzbek adabiy tili boʻyicha yozilgan darslik – qoʻllanmalarda ham oʻz aksini topgan va topmoqda.

Umumtil iborolari modellari asosida yaratilgan frazeologik neologizmlar koʻpincha maʼnoni kuchaytirish, kitobxon ongida hajviy his uygʻotish, salbiy qahramonlardan kulish kabi vazifalarni bajaradi. Bunday iboralar, maʼlum bir mazmunni ifodalash bilan bir qatorda, asar qahramoniga yozuvchining munosabatini ham bildiradi.

Qalami oʻtkir yozuvchi Oʻ.Hoshimov qahramonlarning bir – biriga boʻlgan munosabatini ochishga xizmat qiladigan frazeologizmlarni mohirlik bilan tanlay olgan. Yozuvchi soʻzlarning maʼnosidagi eng nozik emotsional farqlarni seza olgan.

Oʻ.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Bahor qaytmaydi” va shu kabi asarlarida qoʻllanilgan frazeologik birliklarni toʻplab, oʻrganganimizda oʻzgarishga uchramagan va qayta ishlangan frazemalarni ajratib tahlil etdik.

O‘.Hoshimov asarlari tilidagi frazeologizmlar xalq og‘zaki so‘zlashuv tiliga hamohang holda tasvirlanganligini alohida qayd etishimiz lozim. Yuqorida berilgan misollardagi “tomoqni xo‘llab olish”, “notovon ko‘ngilga qo‘tir jomoshov”, “loy qozonga oltin bo‘lmoq”, “bo‘yginang lahatda chirigur”, “so‘lib bormoq”, “qaddini g‘oz tutmoq” kabi frazeologizmlarning xususiyati xalq iboralari va ularning adabiy til variantlaridan foydalanilgan holda tuzilgan va asar kontekstiga mos ravishda qo‘llanilgan.

O‘.Hoshimov asarlarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarni so‘z birikmasiga va gapga teng holatlarni izchil ajratishga harakat qildik. Asarlardagi “qovog‘imdan qor yog‘ayotganini”, “g‘azabdan chaqnagan ko‘zlari”, “rangi o‘chib ketganini”, “es hushini yig‘ib olguncha”, “chiqqan qiz chig‘iriqdan tashqari”, “iymanib turganini”, “qon qilib yuboradigan”, “ensasi qotib” va boshqa shu shaklda qo‘llanilgan frazeologimzlarni so‘z birikmasi shaklidagi frazeologik birliklar deb qabul qildik. Chunki, mazkur birliklar gapda ba’zi o‘rinlarda to‘lig‘icha to‘ldiruvchi, ba’zilarida ega, ba’zilarida esa hol vazifasini bajarmoqda.

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi faqat ma’no hodisasidir. Uning tarkibidagi bo‘laklar o‘rtasida shakllangan sintaktik munosabat o‘z qimmatini saqlagan, o‘zgarishga uchramagan holatda qoladi. Bu jihatdan sodda gap qolipli frazeologizmlar garchi ma’no jihatdan til birligi holiga kelib qolgan bo‘lsa ham, sintaktik jihatdan sodda gaplik qiymatini saqlaydi. U nutq tarkibida gap sifatida olinib boshqa bo‘laklar unga moslashtiriladi va uning biror bo‘lagiga bog‘lab qo‘llanadi.

Frazeologik birliklarni o‘rganish ham amaliy, ham nazariy jihatlariga ko‘ra ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
3. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
4. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi.-T: Fan, 1981.
5. Bozorboev K. O'zbek so'zlashuv nutqi frazeologizmlari: Filol.f.nomz...diss. – Samarqand, 2001.
6. Boymirzaeva S. Oybek prozasining lingvostilistik talqini va mualliflik uslubi. N.D.-Samarqand, 2003.
7. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.-Samarqand, 1999.
8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari: Filol.f. doktr...diss. – Toshkent, 1993.
9. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007.
10. Yo'ldoshev M., Isaqov Z. va b. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Metodik qo'llanma. – Toshkent, 2010.
11. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari.-Andijon, ND., 2006.
12. Qo'chqortoev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent, 1975.
13. Qo'chqortoev I. Badiiy so'z ustasi (A.Qahhor haqida). – Toshkent, 1967.
14. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari: Filol.f.doktr...diss. – Toshkent, 1999.
15. Rafiev A. Iboralar nutqimiz ko'rki. – Toshkent: O'zbekiston, 1985.
16. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1992.
17. Rahmatullaev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari (Frazeologik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik): Filol.f.doktr...diss. – Toshkent, 1966.
18. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Universitet, 2006.
19. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –T: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
20. Sayfullaeva R., Mengliev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
21. Selivanov G.A. Frazeologicheskaya kontaminatsiya kak odin iz pokazateley strukturnogo razvitiya russkogo yazyka // Voprosy semantiki frazeologicheskix edinits. Chast 1. Novgorod, 1971.
22. Sodiqova M. Qisqacha o'zbekcha – ruscha frazeologik lug'at. – Toshkent:
23. O'zbek sovet ensiklopediyasi, 1989.
24. O'rinboev B., Qo'ng'urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T., 1990.

25. Hakimov Q. O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanliklari: Filol.f.nomz...diss. – Toshkent, 1993.

26. Hoshimov O‘. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1970.

27. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1981.

28. Hoshimov O‘. Ikki karra ikki besh. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.

29. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1989.

30. Hoshimov O‘. Nur borki, Soya bor. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981.

31. Hoshimov O‘. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Sharq yulduzi, № 6-7, 1992.

32. Shoabdurahmonov Sh. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 1-qism, -T., «O‘qituvchi», 1980.

33. Shomaqsudov A va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. –T: 1974.

www.ziyonet.uz

www.google.co.uz

www.google.ru

www.lit.ru